“MA’QULLANGAN”
Urganch davlat tibbiyot instituti
Kengashining
2026-yil “27” August dagi
1 -son bayonnomasi bilan

“TASDIQLAYMAN”
Urganch davlat tibbiyot instituti
rektori R.Y.Ruzibayev
_____
2026-yil “27” August.

URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTINING 2026-2030-YILLARGA MO‘LJALLANGAN STRATEGIK RIVOJLANISH DASTURI

Urganch – 2026 yil.

MUNDARIJA

KIRISH

1. UMUMIY QOIDALAR: NATIJALAR TAHLILI VA INSTITUTNING HOZIRGI HOLATI

1.1. Qisqacha tavsif

1.2. Oldingi davrdagi asosiy natijalar

1.3. Institutning hozirgi holati tahlili (asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha), SWOT va TOWS tahlili

1.4. Namunaviy oliy ta’lim tashkilotlari bilan qiyosiy tahlil

1.5. Institut oldida turgan chaqiriqlar

2. INSTITUTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: MAQSADLI MODEL VA UNING ASOSIY TAVSIFLARI

2.1. Institutning missiyasi, qarashi va qadriyatlari

2.2. Institutni rivojlantirishning maqsadli modeli

2.3. Institut faoliyatini amalga oshirish tamoyillari (asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha)

2.3.1. Ilmiy-tadqiqot siyosati

2.3.2. Innovatsiyalar va tijoratlashtirish siyosati

2.3.3. Ta’lim siyosati

2.3.4. Inson kapitalini boshqarish siyosati

2.3.5. Kampus va infratuzilma siyosati

2.3.6. Qo‘shimcha rivojlanish yo‘nalishlari: yoshlar siyosati, xalqaro hamkorlik, klinik faoliyat va hudud oldidagi mas’uliyat

2.4. Moliyaviy model

2.5. Institutni boshqarish tizimi

3. MAQSADLI MODELGA ERISHISH BO‘YICHA REJALASHTIRILGAN CHORA-TADBIRLAR: STRATEGIK MAQSADLAR VA ULARGA ERISHISH STRATEGIYALARI

3.1. 1-strategik maqsad - Klinik yo‘naltirilgan, xalqaro standartlarga mos tibbiy ta’lim

3.2. 2-strategik maqsad - Hudud aholisi salomatligi muammolariga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar

3.3. 3-strategik maqsad - Xalqarolashtirish va qo‘shma ta’lim dasturlarini rivojlantirish

3.4. 4-strategik maqsad - Integratsiyalashgan raqamli ekotizim

3.5. 5-strategik maqsad - Yuqori malakali professor-o‘qituvchilar jamoasini shakllantirish

3.6. 6-strategik maqsad - Zamonaviy, qulay va xavfsiz ta’lim, ilmiy va yashash muhiti

4. “RAQAMLI TIBBIYOT” LOYIHASI

5. INSTITUTNING STRATEGIK LOYIHALARI

5.1. “Orolbo‘yi salomatligi” hududiy ilmiy-amaliy markazi

5.2. Klinik ko‘nikmalar va akkreditatsiya-simulyatsiya markazi

5.3. Uzluksiz kasbiy ta’lim va universitet klinikasi

6. RIVOJLANISH DASTURINI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA CHORA-TADBIRLAR REJASI (2026-2030-YILLAR)

7. RIVOJLANISH DASTURI IJROSINI MONITORING QILISH VA XAVFLARNI BOSHQARISH

XULOSA

1-ILOVA. RIVOJLANISH DASTURI ASOSLANGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

2-ILOVA. MAQSADLI KO‘RSATKICHLARNING YIG‘MA JADVALI (MA’LUMOT MANBAI VA MAS’UL BILAN)

3-ILOVA. STRATEGIK LOYIHALARNING FAOLIYAT YO‘NALISHLARI BO‘YICHA SIYOSATLARNI QAMRAB OLISHI

4-ILOVA. STRATEGIK LOYIHALARNING MAQSADLI KO‘RSATKICHLARGA TA’SIRI

5-ILOVA. RIVOJLANISH DASTURINI MOLIYAVIY TA’MINLASH (MANBALAR VA YILLAR BO‘YICHA)

6-ILOVA. RIVOJLANISH DASTURINI AMALGA OSHIRISHNING YO‘L XARITASI

7-ILOVA. QISQARTMALAR

KIRISH

Urganch davlat tibbiyot instituti (keyingi o‘rinlarda - Institut) Xorazm viloyati va Orolbo‘yi hududining oliy tibbiy ta’lim, tibbiyot ilm-fani va tibbiyot kadrlarining malakasini oshirish bo‘yicha yetakchi muassasasidir. Institut 1992-yil 11-martda tashkil etilgan, uzoq yillar Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali sifatida faoliyat yuritgan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-apreldagi PQ-149-son qaroriga muvofiq mustaqil Urganch davlat tibbiyot institutiga aylantirilgan.

Mazkur Rivojlanish dasturi (keyingi o‘rinlarda - Dastur) Institutning 2025-2030-yillardagi strategik rivojlanishining maqsadli modelini, faoliyatning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha siyosatini, strategik maqsadlarini, ularga erishish strategiyalarini, maqsadli ko‘rsatkichlarini, strategik loyihalarini, moliyaviy modelini va boshqaruv tizimini belgilaydi.

Dastur quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:

- “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi, Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, tibbiyot va farmatsevtika sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid Prezident farmon va qarorlari (ro‘yxati 1-ilovada keltirilgan);
- Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan joriy etilgan kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasi mezonlari;
- Jahon tibbiy ta’lim federatsiyasining (WFME) tayanch tibbiy ta’lim standartlari (2020-yil tahriri) va Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyalari;
- Institut prorektorlarining o‘quv, ilmiy, xalqaro, yoshlar va moliya-iqtisod yo‘nalishlari bo‘yicha 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan rejalari, tarkibiy bo‘linmalarning takliflari;
- talabalar, professor-o‘qituvchilar, bitiruvchilar va ish beruvchilarning fikr-mulohazalari;

Dastur ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- **birinchi bosqich (2026-2027-yillar)** - tibbiy ta’lim tizimidagi yangi talablarga moslashish, kompleks davlat akkreditatsiyasidan o‘tish, klinik va simulyatsion ta’lim bazasini kengaytirish, ilmiy faoliyatni boshqarish tizimini qayta qurish;
- **ikkinchi bosqich (2028-2030-yillar)** - ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyaga tayyorlash, ilmiy salohiyatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, strategik loyihalarni to‘liq ishga tushirish va Institutni hududiy ta’lim-fan-klinik amaliyot markaziga aylantirish.

Dasturda 2025-yil bazaviy yil hisoblanadi: unda Institut mustaqil maqomga ega bo‘lgan, Dastur ishlab chiqilgan va kompleks davlat akkreditatsiyasiga tayyorgarlik boshlangan; chora-tadbirlar 2026-yildan boshlab amalga oshiriladi. Bazaviy ko‘rsatkichlar 2025/2026 o‘quv yili holatiga ko‘ra Institut hisobotlari (kompleks davlat akkreditatsiyasi jadvallari, tarkibiy bo‘linmalar ma’lumotnomalari) asosida berilgan. “____” bilan belgilangan qiymatlar mas’ul bo‘linmalar tomonidan Dastur tasdiqlangunga qadar aniqlashtiriladi.

1. UMUMIY QOIDALAR: NATIJALAR TAHLILI VA INSTITUTNING HOZIRGI HOLATI

1.1. Qisqacha tavsif

Institut Xorazm viloyatidagi yagona tibbiyot oliy ta’lim tashkiloti bo‘lib, o‘ttiz yildan ortiq davr mobaynida hudud sog‘liqni saqlash tizimi uchun shifokorlar, provizorlar, oliy ma’lumotli hamshiralar va boshqa tibbiyot mutaxassislarini tayyorlab kelmoqda. Viloyat tibbiyot muassasalarida faoliyat yuritayotgan shifokorlarning asosiy qismi Institut bitiruvchilaridir.

2025/2026 o‘quv yilida Institutda bakalavriat bosqichida 6 ta fakultetda 13 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 7 022 nafar talaba tahsil oldi. Ta’lim Davolash ishi, Pediatriya ishi, Stomatologiya, Tibbiy profilaktika ishi, Farmatsiya, Oliy hamshiralik ishi, Biotibbiyot muhandisligi, Xalq tabobati yo‘nalishlarida, shuningdek xorijiy hamkor universitetlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida olib boriladi. Institut huzurida ilmiy-tadqiqot instituti va akademik litsey faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-apreldagi PQ-149-son qarori bilan Institutga mustaqil oliy ta’lim tashkiloti maqomi berilishi uning rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi: Institut o‘quv dasturlari, kadrlar siyosati, ilmiy faoliyat va moliyaviy resurslarni boshqarishda kengroq mustaqillikka ega bo‘ldi va shu bilan birga ta’lim sifati, ilmiy natijalar hamda hudud sog‘liqni saqlash tizimi oldidagi mas’uliyati oshdi.

Institutning asosiy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Institutning asosiy ko‘rsatkichlari (2025/2026 o‘quv yili)

Ko‘rsatkich	Qiymat
Fakultetlar soni	6
Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari soni	13
Talabalar soni (bakalavriat)	7 571 nafar
Magistrtura (29 ta mutaxassislik)	292 nafar
Klinik ordinatura	374 nafar
Xorijiy hamkor universitetlar bilan amalga oshirilayotgan qo‘shma ta’lim dasturlari	5 ta (Rossiya Federatsiyasi - 3, Xitoy Xalq Respublikasi - 1, Turkiya Respublikasi - 1)
Kafedralar soni	32
Asosiy shtatdagi professor-o‘qituvchilar	544 nafar
Ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar (asosiy shtat)	163 nafar (30,0 %), shundan fan doktorlari (DSc) - 17 nafar
Professor-o‘qituvchilarning o‘rtacha yoshi	40,6 yosh; 40 yoshgacha bo‘lganlar - 274 nafar (50,4 %)
Amaliyot bazalari (tibbiyot muassasalari va boshqa tashkilotlar)	49 ta
Amaliyotga jalb etilgan talabalar	6 435 nafar
Institut hududining jami maydoni	80 504,38 m²
Binolarning umumiy foydali maydoni	38 765,2 m²
O‘quv auditoriyalari	151 ta, umumiy maydoni 10 243,8 m²
Simulyatsiya markazi	5 ta xona, 8 ta o‘quv bekati
Kompyuterlar	748 ta, shundan internetga ulangan - 642 ta
Proyektorlar / smart televizorlar / interaktiv doskalar	67 / 157 / 34
Wi-Fi hududlari	90 ta
Axborot-resurs markazi fondi	6 875 nomda 89 056 nusxa

Institutning raqobat ustunliklari va strategik rivojlanish uchun tayanch bo‘ladigan noyob resurslari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Institutning noyob resurslari va raqobat ustunliklari

Resurs	Tavsifi	Strategik ahamiyati
Hududdagi yagona davlat tibbiyot oliy ta’lim tashkiloti maqomi	Xorazm viloyati sog‘liqni saqlash tizimini kadrlar bilan ta’minlashning asosiy manbai	Hudud ehtiyojiga yo‘naltirilgan qabul, maqsadli kadrlar tayyorlash, amaliyot va ishga joylashtirishda hududiy hamkorlik
Qo‘shma ta’lim dasturlari	Privoljye tadqiqot tibbiyot universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Shinjon tibbiyot universiteti (Xitoy Xalq Respublikasi) va Sog‘liq bilimlari universiteti (Turkiya Respublikasi) bilan dasturlar	Xalqaro o‘quv rejalari va o‘qitish tajribasini o‘zlashtirish, xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik uchun tayanch
Klinik bazalar tarmog‘i	Viloyatning yirik ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari bilan uzoq muddatli shartnomalar, 2025/2026 o‘quv yilida 49 ta amaliyot bazasi	Bir yillik bitiruv amaliyoti, kafedra filiallari, universitet klinikasi modelini joriy etish imkoniyati
Yangi o‘quv binosi va simulyatsiya markazi	Xorazm viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi hududidagi 540 o‘rinli o‘quv binosi (2024), 5 xonali simulyatsiya markazi	Klinik ta’limni klinika ichida tashkil etish, simulyatsion ta’lim va OSKEni kengaytirish
Yosh professor-o‘qituvchilar jamoasi	Asosiy shtatdagi o‘qituvchilarning yarmi 40 yoshgacha	Ilmiy darajali kadrlarni tez sur’atda tayyorlash va xorijiy tajribani o‘zlashtirish salohiyati
Hududning o‘ziga xos tibbiy-ekologik muammolari	Orolbo‘yi ekologik inqirozi ta’siri ostidagi aholi salomatligi	Xalqaro grantlar va ilmiy hamkorlik uchun noyob tadqiqot yo‘nalishi

1.2. Oldingi davrdagi asosiy natijalar

2023-2025-yillarda Institut asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha mustaqil oliy ta’lim tashkiloti sifatida rivojlanishi uchun tashkiliy, infratuzilmaviy va uslubiy zamin yaratdi.

1. Ta’lim faoliyati

Ta’lim jarayoni kredit-modul tizimiga to‘liq o‘tkazildi, o‘quv jarayoni HEMIS axborot tizimida yuritilmoqda. Ta’lim yo‘nalishlari soni 13 taga yetdi, xorijiy hamkorlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari kengaytirildi: Privoljye tadqiqot tibbiyot universiteti bilan 60910200 - Davolash ishi, 60910100 - Stomatologiya va 60910800 - Farmatsiya dasturlari, Shinjon tibbiyot universiteti bilan Xalq tabobati yo‘nalishi bo‘yicha “3+2” shaklidagi dastur amalga oshirilmoqda, 2026/2027 o‘quv yilidan Turkiyaning Sog‘liq bilimlari universiteti bilan Davolash ishi yo‘nalishi bo‘yicha “4,5+1,5” shaklidagi qo‘shma ta’lim dasturi boshlandi.

Talabalar amaliyotining ko‘lami muntazam oshib bordi: amaliyotga jalb etilgan talabalar soni 2023/2024 o‘quv yilidagi 4 688 nafardan 2025/2026 o‘quv yilida 6 435 nafarga, amaliyot bazalari soni 42 tadan 49 taga yetdi. Amaliyot jarayoni O‘quv-uslubiy boshqarma tomonidan monitoring qilinib, har o‘quv yili yakunida tahliliy ma’lumotnoma tayyorlanadi.

2. Ilmiy-tadqiqot faoliyati

Institut huzurida ilmiy-tadqiqot instituti faoliyat yuritmoqda, professor-o‘qituvchilar tomonidan monografiyalar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar, shu jumladan xorijiy nashriyotlarda nashr etilmoqda. Xorazm va Orolbo‘yi hududi aholisi salomatligi, onalik va bolalik muhofazasi,

yuqumli kasalliklar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun EBSCO, Scopus, EIFL resurslari, Milliy kutubxona va ZiyoNET platformalaridan foydalanish imkoniyati yaratildi.

3. Inson resurslari

2025/2026 o‘quv yilida asosiy shtatda 544 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat yuritdi, ulardan 163 nafari (30,0 %) ilmiy darajaga ega, shu jumladan 17 nafari fan doktori (DSc). Kafedralar soni 29 tadan 32 taga yetdi. Professor-o‘qituvchilarning o‘rtacha yoshi 40,6 yoshni tashkil etadi, 274 nafari (50,4 %) 40 yoshgacha bo‘lgan yosh o‘qituvchilardir. Professor-o‘qituvchilarning 82 nafari xorijiy ta’lim va tibbiyot muassasalarida malaka oshirgan.

4. Talabalar bilan ishlash

1-3-kurs talabalari bilan tyutorlar ishlashi yo‘lga qo‘yildi, ikki nafar psixolog faoliyat yuritadigan psixologik xizmat tashkil etildi, talabalar murojaatlarini qabul qilishning “ishonch qutisi”, Telegram-bot va QR-fidbek kanallari joriy etildi. Bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash uchun har yili mehnat yarmarkalari o‘tkazilmoqda: 2024-yil 17-maydagi yarmarkada 123 ta tibbiyot muassasasi tomonidan 533 ta bo‘sh ish o‘rni taqdim etildi, 2026-yil 22-maydagi yarmarkada 392 ta bo‘sh ish o‘rni taqdim etilib, 629 nafar bitiruvchi ishtirok etdi, 374 nafar bitiruvchiga davlat va 33 nafariga xususiy tibbiyot muassasalariga yo‘llanma berildi.

5. Infratuzilma

Bosh binoning (Al-Xorazmiy ko‘chasi 28-uy) umumiy quvvati 1400 o‘quvchi o‘rniga ega.

2-sonli o‘quv binosi (Farg‘ona ko‘chasi 1A-uy) umumiy quvvati 450 o‘quvchi o‘rniga ega.

3-sonli o‘quv binosi (Maxtumquli ko‘chasi 49-uy) umumiy quvvati 540 o‘quvchi o‘rniga ega.

Institut o‘quv binolarining umumiy quvvati 2390 o‘rinni tashkil etadi.

Institutga tegishli hududlarning jami maydoni 80 504,3 kv.m ni tashkil etadi. Institut hududining umumiy foydali maydoni 38 765,2 kv.m ni tashkil etadi.

Institutda jami 151 ta o‘quv auditoriyalar mavjud bo‘lib, ushbu o‘quv auditoriyalarining umumiy maydoni 34 000,0 kv.m. Shundan xonalarning 31 tasi ma’ruza xonalari, 98 tasi o‘quv auditoriyalar, 6 tasi laboratoriya xonalari, 2 tasi kompyuter sinflari va 6 tasi lingafon xonalari hisoblanadi. Institutda 1 ta simulyatsion markaz mavjud bo‘lib, umumiy maydoni 1180,96 kv.m. tashkil qiladi. Ushbu simulyatsion markazda anatomik modellar va manekenlar yordamida talabalarga amaliy ko‘nikmalarni (inyeksiya, tug‘ish jarayoni, traxeostomiyaga qarash, yurak auskultatsiyasi) xavfsiz muhitda o‘zlashtiriladi.

Bugungi kunda institutda jami 583 ta monoblok, 134 ta kompyuter,

31 noutbuklar mavjud bo‘lib, ularning 642 tasi internet tarmog‘iga ulangan. Institutda 67 ta proektor, 182 ta smart televizor, 34 ta interaktiv doskalar mavjud bo‘lib, barchasi ishchi holatda.

1-sonli talabalar turar joyi institut bosh o‘quv binosining bir qismida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni 2503,8 kv.m tashkil qiladi Umumiy quvvati 204 o‘rinni tashkil qiladi. TTJ binosida 12 ta muzlatkich, 12 ta elektroplita, 6 ta Smart televizor, 7 ta videokuzatuv kamerasi 12 ta kir yuvish mashinasi mavjud.

2-sonli talabalar turar joyi institutning 2-sonli o‘quv binosi hududida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni 3790,0 kv.m tashkil qiladi Umumiy quvvati 420 o‘rinni tashkil qiladi. TTJ binosida 8 ta muzlatkich, 8 ta elektroplita, 4 ta Smart televizor, 21 ta videokuzatuv kamerasi, 8 ta kir yuvish mashinasi mavjud.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 563-sonli qaroriga asosan institutining 2-sonli o‘quv binosi hududida davlat-xususiy sheriklik loyihasi asosida 350 o‘rinli talabalar turar joyi xususiy tashabbuskor “ASL PHARMA” mas’uliyati cheklangan jamiyat tomonidan barpo etildi hamda foydalanishga topshirildi.

Institut bazasida mavjud laboratoriya xonalarida hamda simulyatsion markazida jami 230 nomdagi umumiy summasi 10,1 mlrd.so‘mlik asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalar mavjud.

1.3. Institutning hozirgi holati tahlili (asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha) va mavjud salohiyat

Institutning asosiy faoliyat parametrlari dinamikasi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Institut faoliyatining asosiy parametrlari dinamikasi

Ko‘rsatkich	2023/2024	2024/2025	2025/2026
Kafedralar soni	29	29	32
Amaliyotga jalb etilgan talabalar soni, nafar	4 688	5 773	6 435
Amaliyot bazalari soni	42	45	49
Amaliyotga mas’ul kafedralar soni	18	15	16
Monitoring o‘tkazilgan amaliyot bazalari soni	20	22	23
Axborot-resurs markaziga qabul qilingan adabiyotlar (kalendar yil: 2023 / 2024 / 2025), nom / nusxa	302 / 5 701	77 / 3 303	177 / 6 497
Mehnat yarmarkasida taqdim etilgan bo‘sh ish o‘rinlari (2024 / 2025 / 2026-yil may)	533	248	392
Talabalar soni (bakalavriat), nafar	4 688	5 773	7 022
Ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar ulushi (asosiy shtat), %	____	____	30,0

1. Ta’lim

Institut tibbiyot sohasidagi asosiy bakalavriat yo‘nalishlarining barchasini qamrab oladi va hududda shifokor, provizor va oliy ma’lumotli hamshira tayyorlashning yagona markazi hisoblanadi. Qo‘shma ta’lim dasturlari xorijiy universitetlarning o‘quv rejalari, o‘qitish va baholash amaliyotini o‘zlashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, simulyatsion o‘qitish va ob’ektiv tuzilmalashtirilgan klinik imtihon (OSKE) ko‘lami klinik ta’lim ehtiyojlariga nisbatan cheklangan, ta’lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o‘tmagan, xorijiy tillarda dars bera oladigan o‘qituvchilar yetishmaydi. Rus va ingliz tillaridagi zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganlikni oshirish talab etiladi.

2. Ilm-fan

Institutning ilmiy salohiyati asosan klinik kafedralarda to‘plangan. Ilmiy darajali kadrlar ulushi (30,0 %) kafedralar kesimida notekis taqsimlangan, bir qator kafedralarda bu ko‘rsatkich 20 foizdan past. Scopus va Web of Science bazalarida indekslanadigan nashrlar, xalqaro grantlar, patentlar va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish ko‘rsatkichlari Institut salohiyatiga mos darajada emas. Orolbo‘yi hududi aholisi salomatligi muammolari Institut uchun xalqaro miqyosda dolzarb va noyob ilmiy yo‘nalish bo‘lib, uni tizimli dasturga aylantirish imkoniyati mavjud.

3. Inson resurslari

Professor-o‘qituvchilar tarkibining yarmidan ko‘pi 40 yoshgacha bo‘lgan yosh mutaxassislar ekanligi Institutning kadrlar salohiyatini tez sur’atda oshirish uchun muhim resursdir. Shu bilan birga, assistentlar asosiy shtatning 63 foizini tashkil etadi, ilmiy rahbarlik qila oladigan fan doktorlari soni (17 nafar) ilmiy kadrlar tayyorlash ehtiyojiga nisbatan kam.

4. Hudud bilan integratsiya

Institut viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi va yirik tibbiyot muassasalari bilan uzoq muddatli hamkorlikka ega. Klinik kafedralar professor-o‘qituvchilari viloyat tibbiyot muassasalarida davolash ishlarini olib boradi. Ushbu integratsiya universitet klinikasi modelini joriy etish, bir yillik bitiruv amaliyotini tashkil etish va hudud tibbiyot xodimlarining uzluksiz kasbiy ta’limini yo‘lga qo‘yish uchun asos bo‘ladi.

Institut faoliyatining SWOT tahlili natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Institut faoliyatining SWOT tahlili

Kuchli tomonlar (S)	**Zaif tomonlar (W)**
- hududdagi yagona tibbiyot oliy ta’lim tashkiloti, 30 yildan ortiq kadrlar tayyorlash tajribasi; - 13 ta ta’lim yo‘nalishi, jumladan Rossiya, Turkiya va Xitoy universitetlari bilan qo‘shma ta’lim dasturlari; - viloyatning yirik tibbiyot muassasalari bilan uzoq muddatli shartnomalar asosidagi klinik bazalar; - yangi o‘quv binosi, simulyatsiya markazi, yetarli AKT jihozlari; - ilmiy-tadqiqot instituti va akademik litseyning mavjudligi; - yosh professor-o‘qituvchilar jamoasi; - bitiruvchilarga bo‘lgan barqaror talab.	- ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar ulushining pastligi (30,0 %) va kafedralar o‘rtasida notekis taqsimlanishi; - xalqaro ilmiy bazalardagi nashrlar, grantlar va patentlar sonining kamligi; - ta’lim dasturlarining xalqaro akkreditatsiyadan o‘tmaganligi; - simulyatsion o‘qitish va OSKE ko‘lamining cheklanganligi; - xorijiy tillarda dars bera oladigan o‘qituvchilarning yetishmasligi; - bitiruvchilar bandligi va ish beruvchilar fikrini tizimli monitoring qilish mexanizmlarining to‘liq shakllanmaganligi; - byudjetdan tashqari daromad manbalarining cheklanganligi.
Imkoniyatlar (O)	**Tahdidlar (T)**
- tibbiy ta’lim islohotlari (umumiy tibbiyot “5+1”, bir yillik amaliyot, rezidentura) Institut rolini oshirishi; - oliy hamshiralik ta’limi bo‘yicha qabulning kengayishi; - universitet klinikasi modelini joriy etish va klinik tadqiqotlarni rivojlantirish; - xorijiy hamkorlar bilan akademik mobillik va qo‘shma ilmiy loyihalar; - Orolbo‘yi hududi muammolari bo‘yicha xalqaro grant dasturlari; - tibbiyot xodimlarining uzluksiz kasbiy ta’limiga talabning oshishi (davlat reyestri, kreditlar tizimi).	- tibbiy ta’limga oid me’yoriy talablarning tez o‘zgarishi; - malakali kadrlarning poytaxt va xorijga ketishi, kadrlar uchun raqobat; - xorijiy va xususiy tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlari bilan abituriyentlar uchun raqobat; - klinik bazalar sig‘imining talabalar sonining o‘sishiga nisbatan cheklanganligi; - jihozlar, reaktivlar va kommunal xizmatlar narxining oshishi; - hududning ekologik va iqlim bilan bog‘liq xavflari.

SWOT tahlili natijalari asosida kuchli tomonlar va imkoniyatlardan foydalanish, zaif tomonlarni bartaraf etish va tahdidlarni kamaytirish bo‘yicha strategiyalar (TOWS tahlili) belgilandi. Ularning Dasturdagi aksi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

SWOT natijalaridan kelib chiqadigan strategiyalar (TOWS tahlili)

Strategiya turi	Mazmuni	Dasturdagi javob
SO - kuchli tomonlar orqali imkoniyatlardan foydalanish	Klinik bazalar, yangi o‘quv binosi va simulyatsiya markazidan foydalanib umumiy tibbiyot “5+1” modeli, bir yillik amaliyot va uzluksiz kasbiy ta’limga o‘tishda yetakchilik qilish; qo‘shma ta’lim dasturlari tajribasini xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlikda qo‘llash	1-strategik maqsad; 5.2 va 5.3-strategik loyihalar
WO - imkoniyatlar orqali zaif tomonlarni bartaraf etish	Xorijiy hamkorlar bilan akademik mobillik, xorijda malaka oshirish va qo‘shma ilmiy loyihalar orqali ilmiy salohiyat va xorijiy til kompetensiyasini oshirish; Orolbo‘yi muammolari bo‘yicha xalqaro grantlarni jalb etish	2, 3 va 5-strategik maqsadlar; 5.1-strategik loyiha
ST - kuchli tomonlar orqali tahdidlarni kamaytirish	Hududdagi yagona tibbiyot oliy ta’lim tashkiloti maqomi va ish beruvchilar bilan hamkorlikdan foydalanib abituriyentlar va kadrlar uchun raqobatga javob berish; klinik bazalar tarmog‘ini kengaytirib sig‘im cheklovini yumshatish	1 va 6-strategik maqsadlar; 2.3.6.3-band
WT - zaif tomonlar va tahdidlarni birgalikda kamaytirish	KPI va rag‘batlantirish tizimi orqali kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirish; byudjetdan tashqari daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va xarajatlarni optimallashtirish orqali moliyaviy xavflarni kamaytirish	5-strategik maqsad; 2.4-band (moliyaviy model); 7-bo‘lim

1.4. Namunaviy oliy ta’lim tashkilotlari bilan qiyosiy tahlil

Maqsadli modelni belgilashda Institut milliy va xorijiy tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlarining amaliyotini namuna sifatida o‘rgandi. Namunaviy tashkilotlar Institut bilan o‘xshash vazifalarni (hududiy sog‘liqni saqlash tizimini kadrlar bilan ta’minlash, xalqaro akkreditatsiya, ta’lim-fan-klinika integratsiyasi) muvaffaqiyatli hal qilganligi yoki Institutning hamkori ekanligi asosida tanlandi (**6-jadval**).

1.5. Institut oldida turgan xavflar

Hozirgi bosqichda Institut bir qator ichki va tashqi chaqiriqlarga duch kelmoqda.

Ichki xavflar va cheklovlar:

- yuqori malakali, tadqiqot kompetensiyalariga ega kadrlar uchun raqobatning kuchayishi; shifokorlik va pedagogik faoliyatni birga olib borayotgan klinik kafedra o‘qituvchilariga pedagogik, ilmiy va klinik talablarning bir vaqtda oshishi;
- talabalar soni o‘sishi sharoitida klinik bazalardagi o‘quv maydonlari va bemor bilan ishlash imkoniyatining cheklanganligi;
- sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi, o‘qituvchilarning ushbu texnologiyalardan ta’limda foydalanish va sun’iy intellekt yordamida yaratilgan matnlarni aniqlash ko‘nikmalarining yetarli emasligi, talabalarning mustaqil bilim olish qobiliyati pasayishi xavfi;
- ilmiy-ishlab chiqarish infratuzilmasi, bilim va texnologiyalar transferi tajribasi, innovatsion tadbirkorlik muhitining shakllanmaganligi;
- byudjetdan tashqari daromad manbalarining cheklanganligi va moliyaviy resurslarni strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirish zarurati.

Tashqi xavf-xatarlar:

- tibbiy ta’lim tizimidagi tub o‘zgarishlar: 2027/2028 o‘quv yilidan umumiy tibbiyot “5+1” bakalavriatiga o‘tish, bitiruv kursida bir yillik amaliyot, tor mutaxassisliklarni rezidenturaga o‘tkazish, tibbiyot xodimlarining davlat reyestrini yuritish;
- kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasi, xalqaro akkreditatsiya talablarining kuchayishi;
- aholining qarishi, surunkali va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar tarqalishining ortishi, birlamchi bo‘g‘inda, oila va jamoa bilan, ko‘p tarmoqli jamoalarda ishlay oladigan mutaxassislarga ehtiyojning oshishi;
- Orolbo‘yi ekologik inqirozi va iqlim o‘zgarishining aholi salomatligiga ta’siri;
- ilmiy-texnik axborot hajmining keskin oshishi, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va xalqaro ilmiy hamkorlik shakllarining murakkablashuvi;
- xorijiy va xususiy oliy ta’lim tashkilotlari bilan abituriyentlar va professor-o‘qituvchilar uchun raqobatning kuchayishi.

2. INSTITUTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: MAQSADLI MODEL VA UNING ASOSIY TAVSIFLARI

2.1. Institutning missiyasi, qarashi va qadriyatlari

Kelajakning tibbiyot oliy ta’lim tashkiloti - ilg‘or bilimlar yaratiladigan va tarqatiladigan, sog‘liqni saqlash tizimining yetakchilari tarbiyalanadigan, hudud aholisi salomatligiga oid yechimlar ishlab chiqiladigan ilmiy-ta’lim markazi, jamiyatni insonparvar qadriyatlarga ega yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlaydigan mas’uliyat markazidir. Ushbu yondashuv Institutning missiyasini belgilaydi.

Institutning missiyasi: ta’lim, ilm-fan va klinik amaliyot integratsiyasi asosida xalqaro standartlarga javob beradigan, insonparvar va raqobatbardosh tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash, ilg‘or ta’lim, tadqiqot va tibbiyot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish orqali Xorazm viloyati va Orolbo‘yi hududi aholisining sog‘lom va faol umr ko‘rishiga hissa qo‘shish.

Missiya Institut faoliyatining ustuvorliklari va tamoyillarini belgilovchi quyidagi qadriyatlarga asoslanadi:

- **jamiyat va bemor oldidagi mas’uliyat** - yuqori kompetensiyali, yuksak axloqiy fazilatlarga ega, Vatanga sodiq mutaxassislarni tarbiyalash; bemor xavfsizligi va manfaatining ustuvorligi;
- **sifat va dalillarga asoslanganlik** - ilg‘or ta’lim va ilmiy yondashuvlarni joriy etish, qarorlarni ma’lumotlar tahlili asosida qabul qilish;
- **akademik halollik va kasbiy etika** - ta’lim, baholash, tadqiqot va klinik faoliyatda halollik, shaffoflik va adolat;
- **ochiqlik va hamkorlik** - davlat organlari, tibbiyot muassasalari, ish beruvchilar, jamoatchilik va xalqaro hamkorlar bilan faol hamkorlik;
- **rivojlanish va innovatsiya** - uzluksiz o‘qish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etish.

Missiyani amalga oshirish doirasida Institut faoliyati quyidagilarga yo‘naltiriladi:

- hudud va mamlakat sog‘liqni saqlash tizimining strategik vazifalarini hal qilish uchun zarur kompetensiyalarni shakllantiradigan ilg‘or ta’lim muhitini yaratish;
- ta’lim, ilm-fan va klinik amaliyotni integratsiyalash orqali ilmiy ishlanmalarni tibbiyot amaliyotiga tezkor joriy etish;
- shaxsni uyg‘un rivojlantirish, yuksak ijtimoiy mas’uliyat, vatanparvarlik va kasbiy etikaga ega fuqarolarni tarbiyalash;
- ta’lim va ilm-fan sohasidagi xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

Institutning qarashi: 2030-yilga borib Institut - ta’lim dasturlari xalqaro tan olingan, ta’lim-fan-klinik amaliyot integratsiyasi ta’minlangan, Orolbo‘yi hududi sog‘liqni saqlash muammolari bo‘yicha yetakchi ilmiy-ta’lim markazi va hudud tibbiyot xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanish markazi.

Missiyani amalga oshirishni ta’minlovchi asosiy rivojlanish yo‘nalishlari:

- **kelajak ta’limi** - kompetensiyaga asoslangan o‘quv dasturlari, simulyatsion va raqamli ta’lim texnologiyalari, amaliy tayyorgarlik sifatini oshiradigan yangi yechimlar;
- **hudud ehtiyojiga yo‘naltirilgan tadqiqotlar** - Orolbo‘yi hududi aholisi salomatligi, onalik va bolalik muhofazasi, yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar;
- **kadrlar salohiyatini rivojlantirish** - eng yaxshi talabalar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash, yetakchi olimlar va iqtidorli yoshlarni jalb etish;
- **raqamli transformatsiya** - sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va avtomatlashtirilgan tizimlarni ta’lim, ilmiy va boshqaruv jarayonlariga joriy etish;
- **klinik integratsiya** - universitet klinikasi modeli, kafedra filiallari, bir yillik bitiruv amaliyoti va uzluksiz kasbiy ta’lim orqali hudud sog‘liqni saqlash tizimi bilan integratsiya;
- **xalqaro hamkorlik** - qo‘shma ta’lim dasturlari, akademik mobillik va xalqaro ilmiy loyihalarni kengaytirish.

2.2. Institutni rivojlantirishning maqsadli modeli

Institutning maqsadli modeli - hudud sog‘liqni saqlash tizimi bilan integratsiyalashgan, klinik yo‘naltirilgan ta’lim, hudud aholisi salomatligiga yo‘naltirilgan tadqiqotlar va uzluksiz kasbiy ta’limga ixtisoslashgan ilmiy-ta’lim-klinik markaz. Maqsadli model quyidagi ixtisoslashuvlarga tayanadi:

- umumiy tibbiyot, pediatriya va oliy hamshiralik ishi bo‘yicha xalqaro standartlarga mos, simulyatsion va klinik ta’limga asoslangan kadrlar tayyorlash;
- Orolbo‘yi hududi aholisi salomatligiga ekologik omillar ta’siri, onalik va bolalik salomatligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar;
- hudud tibbiyot xodimlari uchun kreditlarga asoslangan uzluksiz kasbiy ta’lim va mutaxassislarni baholash.

Maqsadli modelga erishish asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha 7-jadvalda keltirilgan tavsiflarga erishish orqali ta’minlanadi; ularning milliy rivojlanish maqsadlari bilan bog‘liqligi 8-jadvalda ko‘rsatilgan.

Asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha Institutning hozirgi holati va maqsadli modeli

7-jadval

Yo‘nalish	Hozirgi holat (2025)	Maqsadli model (2030)
Ta’lim	13 ta yo‘nalish, 5 ta qo‘shma dastur; simulyatsiya markazi - 8 ta stansiya; 1 ta ta’lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan	Umumiy tibbiyot “5+1” modeli va bir yillik bitiruv amaliyoti joriy etilgan; 20 ta simulyatsiya stansiyasi; klinik fanlar OSKE bilan yakunlanadi; kamida 2 ta dastur xalqaro akkreditatsiyaga taqdim etilgan; 7 ta qo‘shma dastur
Ilm-fan	Ilmiy-tadqiqot instituti faoliyat yuritadi; xalqaro nashrlar, grantlar va patentlar soni kam	“Orolbo‘yi salomatligi” hududiy ilmiy-amaliy markazi; xalqaro nashrlar soni 2 baravar ko‘p; ilmiy faoliyat KPI asosida boshqariladi
Inson resurslari	Ilmiy darajali kadrlar ulushi 32,%, fan doktorlari 17 nafar	Ilmiy darajali kadrlar ulushi 70 %, fan doktorlari 40 nafar; 100 nafar o‘qituvchi xorijda malaka oshirgan; KPI asosidagi rag‘batlantirish tizimi
Xalqarolashtirish	Rossiya, Xitoy va Turkiya universitetlari bilan qo‘shma dasturlar	Akademik mobillik tizimli yo‘lga qo‘yilgan; xorijiy talabalar soni 80 % ga ko‘p; uzoq muddatli faoliyat yurituvchi xorijiy professor-o‘qituvchilar
Raqamli transformatsiya	HEMIS tizimi; 724 ta kompyuter, 70 ta Wi-Fi hududi	Integratsiyalashgan raqamli ekotizim; barcha fanlar elektron resurslar bilan ta’minlangan; virtual klinik holatlar bazasi; “Raqamli tibbiyot” moduli
Klinik integratsiya va uchinchi missiya	49 ta amaliyot bazasi	60 ta amaliyot bazasi, kafedra filiallari; universitet klinikasi modeli bo‘yicha takliflar amalga oshirilgan; uzluksiz kasbiy ta’lim markazi yiliga 800 nafargacha tinglovchi
Kampus va infratuzilma	Yangi o‘quv binosi, 151 ta auditoriya;	Umumiy auditoriyalar sonini 180 taga yetkazish, energiya tejamkor kampus
Moliya va boshqaruv	Byudjetdan tashqari daromad manbalari cheklangan; strategik reja ijrosini monitoring qilish tizimi shakllanmoqda	Byudjetdan tashqari daromadlar 65 % ga ko‘p; ISO 21001 bo‘yicha sertifikatlangan boshqaruv tizimi; moliyaviy KPI va choraklik monitoring

8-jadval

Institut maqsadli modelining milliy rivojlanish maqsadlari bilan bog‘liqligi

Milliy maqsad (hujjat)	Institutning hissasi
Aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini 2030-yilda 78 yilga yetkazish, profilaktik ko‘riklar qamrovini oshirish (“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi)	Birlamchi bo‘g‘in uchun shifokor va hamshiralarni tayyorlash, hudud aholisi salomatligi bo‘yicha tadqiqotlar, profilaktik tadbirlarda ishtirok
Umumiy tibbiyot “5+1” bakalavriati, bir yillik bitiruv amaliyoti, rezidentura, davlat reyestri (2026-yil 10-sentabrdagi PF-191-son Farmon)	O‘quv rejalari va amaliyotni qayta tashkil etish, simulyatsion baholash markazi, uzluksiz kasbiy ta’lim
Oliy hamshiralik ta’limini kengaytirish, qabulni har yili kamida 20 % ga oshirish	Oliy hamshiralik ishi bo‘yicha ta’lim sharoitlari va simulyatsion xonalarni kengaytirish
Onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish (2022-yil 25-apreldagi Prezident qarori)	Pediatriya, neonatologiya va akusherlik bo‘yicha kadrlar tayyorlash, tegishli ilmiy tadqiqotlar
Oliy ta’lim sifatini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasi orqali ta’minlash (VM 498-son qarori)	Ichki sifat ta’minoti tizimi, ta’lim dasturlarini akkreditatsiyaga tayyorlash
Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash (2026-yil 26-maydagi PF-98-son Farmon)	Tayanch doktorantura, ilmiy rahbarlik salohiyatini oshirish

2030-yilgacha Institut transformatsiyasining yakuniy natijalari:

- Institut hududdagi tibbiy ta’lim, ilm-fan va klinik amaliyotni birlashtiruvchi markazga aylanadi;
- hudud sog‘liqni saqlash tizimi xalqaro standartlarga mos tayyorlangan, davlat reyestriga kiritishga tayyor mutaxassislar bilan ta’minlanadi;
- Orolbo‘yi hududi aholisi salomatligi bo‘yicha ilmiy natijalar sog‘liqni saqlash amaliyotiga joriy etiladi;
- Institut boshqaruvi raqamli va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimiga o‘tadi.

2.3. Institut faoliyatini amalga oshirish tamoyillari (asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha)

2.3.1. Ilmiy-tadqiqot siyosati

Maqsad: fundamental va amaliy tadqiqotlarni samarali o‘tkazish, yangi tibbiyot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish uchun sharoit yaratish orqali Institutning milliy va xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish.

Siyosatning asosiy tamoyillari:

- fan va ta’lim integratsiyasi - tadqiqot natijalarini o‘quv dasturlariga joriy etish;
- professor-o‘qituvchilarni ilmiy-tadqiqot va innovatsion jarayonga faol jalb etish mexanizmlari orqali ilmiy salohiyatni rivojlantirish;
- yosh tadqiqotchilarni jalb etish uchun grantlar, stajirovkalar va ustoz-shogird dasturlari orqali sharoit yaratish, ilmiy maktablar davomiyligini ta’minlash;
- murakkab muammolarni hal qilish uchun ilmiy jamoalarning fanlararo hamkorligi;
- klinik bazalar, ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish bilan hamkorlikni kengaytirish, buyurtma asosidagi tadqiqotlar va ilmiy xizmatlar ko‘rsatish;
- tadqiqotlarni moliyalashtirish uchun grantlar, davlat dasturlari va xususiy investitsiyalarni jalb etish;
- ilmiy etika va akademik halollikka qat’iy rioya etish.

Siyosatning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari:

1. ustuvor ilmiy yo‘nalishlarni belgilash: Orolbo‘yi hududi aholisi salomatligiga ekologik omillar ta’siri; onalik va bolalik salomatligi; yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi va davolash; klinik tibbiyotda innovatsion texnologiyalar;

2. ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarini, shu jumladan yoshlar laboratoriyalarini tashkil etish va modernizatsiya qilish, asbob-uskunalar bazasini kengaytirish;

3. ilmiy faoliyat samaradorligini kafedralar kesimida KPI asosida baholash tizimini joriy etish, xalqaro reytingli jurnallardagi nashrlar va intellektual faoliyat natijalarini ro‘yxatdan o‘tkazishni rag‘batlantirish;

4. fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar va talabalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash;

5. tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish uchun tibbiyot muassasalari va korxonalar bilan hamkorlik;

6. Xorazm va Orolbo‘yi hududi tibbiy muammolari bo‘yicha respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarni muntazam o‘tkazish.

2.3.2. Innovatsiyalar va tijoratlashtirish siyosati

Maqsad: Institutda innovatsion ekotizimni shakllantirish orqali yangi tibbiyot texnologiyalari, ishlanmalar va g‘oyalarni amaliyotga faol joriy etish, Institut, tibbiyot muassasalari, biznes va davlat tuzilmalari o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni ta’minlash.

Siyosatning asosiy tamoyillari:

- innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini, shu jumladan intellektual mulkni himoya qilish va texnologiyalar transferi bo‘yicha mas’ul bo‘linmani rivojlantirish;

- ilmiy-innovatsion natijalarni patentlash va litsenziyalash mexanizmlarini ishlab chiqish, intellektual mulkni himoya qilish va undan tijorat maqsadida foydalanishni rag‘batlantirish;

- innovatsion ishlanmalarni ilgari surish uchun real sektor tashkilotlari bilan sheriklik tarmog‘ini yaratish;

- talabalar va xodimlarda tadbirkorlik madaniyati va innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Siyosatning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari:

1. istiqbolli innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun grantlar, subsidiyalar va investorlarni izlash va jalb etish;

2. ishlanmalarni himoya qilish mexanizmlari - patentlash, litsenziya shartnomalari, joriy etish dalolatnomalari;

3. tadbirkorlik va ishlanmalarni tijoratlashtirish asoslari bo‘yicha o‘quv kurslarini joriy etish;

4. innovatsion mahsulotlarni ko‘rgazmalar va anjumanlarda namoyish etish;

5. o‘z biznesini yaratishni istagan talabalar va o‘qituvchilarga murabbiylik, maslahat va resurslar bilan yordam berish;

6. tibbiyot muassasalari va ish beruvchilar talablari asosida startap tanlovlari, xakatonlar va pitch-sessiyalar o‘tkazish.

2.3.3. Ta’lim siyosati

Maqsad: ilmiy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, innovatsiyalar va insonparvarlik qadriyatlariga tayangan holda tibbiyot muammolarini samarali hal qila oladigan yuqori malakali, axloqiy mas’uliyatli va raqobatbardosh sog‘liqni saqlash mutaxassislarini tayyorlash.

Siyosatning asosiy tamoyillari:

- yuqori ta’lim sifatiga erishish uchun ta’lim va fan integratsiyasi;

- ta’lim jarayonida innovatsiyalar, talabaga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishga imkon beruvchi uslubiy ta’minotni uzluksiz takomillashtirish;

- zamonaviy ta’lim va simulyatsiya texnologiyalarini, jumladan raqamli platformalar va masofaviy ta’lim shakllarini joriy etish;

- sog‘liqni saqlash amaliyoti, tibbiyot ilm-fani talablari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olib ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va yangilash;

- ta’limning barcha bosqichlarida amaliy tayyorgarlikka e’tibor qaratgan klinik ta’lim; bemor xavfsizligi;

- o‘qituvchilar va amaliyot rahbarlarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi;

- ta’limni xalqarolashtirish va ta’lim sifati uchun ijtimoiy mas’uliyat.

Siyosatning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari:

1. ta’lim dasturlarini kutilgan o‘quv natijalari asosida loyihalash va yangilash; 2027/2028 o‘quv yilidan umumiy tibbiyot “5+1” bakalavriatiga va bitiruv kursida bir yillik amaliyotga o‘tish;

2. simulyatsion ta’lim, OSKE va kompetensiyalarni baholashning ob’ektiv usullarini rivojlantirish;

3. oliy hamshiralik ta’limini kengaytirish va kasblararo ta’limni joriy etish;

4. klinik amaliyotni takomillashtirish uchun tibbiyot muassasalari bilan sheriklikni rivojlantirish, kafedra filiallarini tashkil etish;

5. mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o‘qitishni kengaytirish va qo‘shma ta’lim dasturlari sifatini ta’minlash;

6. ta’lim dasturlarini WFME standartlari asosida o‘z-o‘zini baholash va xalqaro akkreditatsiyaga tayyorlash;

7. akademik litsey ta’limini tibbiy ta’limga tayyorlov yo‘nalishida takomillashtirish.

2.3.4. Inson kapitalini boshqarish siyosati

Maqsad: Institutning strategik maqsadlariga erishishni ta’minlaydigan, yuqori malakali, ilmiy salohiyatli va xalqaro tajribaga ega jamoani shakllantirish, rivojlantirish va saqlab qolish.

Siyosatning asosiy tamoyillari:

- ochiq tanlov va shaffof kadrlar siyosati;
- natijaga asoslangan baholash va adresli rag‘batlantirish;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish - pedagogik, ilmiy, klinik, raqamli va xorijiy til kompetensiyalari;
- kadrlar zaxirasi va yosh xodimlarni qo‘llab-quvvatlash, ustoz-shogird tizimi;
- akademik erkinlik va professional hamjamiyatga mansublik hissini rivojlantirish.

Siyosatning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari:

1. kafedralar kesimida kadrlarga ehtiyojni rejalashtirish va ilmiy darajali mutaxassislarni ochiq tanlov asosida jalb etish;

2. rahbar va professor-o‘qituvchilar faoliyatini KPI asosida baholash, natijalarga ko‘ra rag‘batlantirish;

3. yosh o‘qituvchilarni tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka yo‘naltirish, ilmiy rahbarlik salohiyatini oshirish;

4. axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ingliz tili bo‘yicha o‘quv kurslari, AKTni yuqori darajada o‘zlashtirgan o‘qituvchilar ulushini 85 foizga yetkazish;

5. xorijiy hamkor universitetlar va klinikalarda stajirovka va malaka oshirish, uzoq muddatli faoliyat uchun xorijiy professor-o‘qituvchilarni jalb etish;

6. ma’muriy-boshqaruv xodimlarining boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish va raqamli kompetensiyalarini oshirish.

2.3.5. Kampus va infratuzilma siyosati

Maqsad: ta’lim, ilmiy tadqiqot va talabalar yashashi uchun zamonaviy, qulay, xavfsiz va inklyuziv muhitni yaratish, mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish.

Siyosatning asosiy tamoyillari:

- infratuzilmani ta’lim va ilmiy jarayon ehtiyojlaridan kelib chiqib ustuvorlik asosida rivojlantirish;
- xavfsizlik, ergonomika va sanitariya talablariga qat’iy rioya etish;
- inklyuzivlik - imkoniyati cheklangan shaxslar uchun teng shart-sharoitlar;
- energiya tejamkorlik va resurslardan oqilona foydalanish.

Siyosatning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari:

1. o‘quv, laboratoriya va simulyatsiya xonalarini zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash, barcha xonalarni xavfsizlik va ergonomika bo‘yicha texnik pasportlashtirish;

2. binolarni inklyuziv talablarga moslashtirish;

3. talabalar turar joylari bilan ta’minlanganlikni oshirish, sport va madaniy inshootlarni rivojlantirish;

4. energiya resurslarini hisobga olish va tejash, muqobil energiya manbalarini joriy etish;

5. AKT infratuzilmasi: kompyuter parkini yangilash, Wi-Fi qamrovi va internet tezligini oshirish.

2.3.6. Qo‘shimcha rivojlanish yo‘nalishlari

2.3.6.1. Yoshlar siyosati

Maqsad: talabalar uchun sog‘lom, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish, ularni ma’naviy yetuk, faol fuqaro va kasbiy etikaga sodiq mutaxassis sifatida tarbiyalash.

Asosiy yo‘nalishlar:

1. 1-3-kurslarda tyutorlik tizimi, psixologik xizmat va onlayn maslahatlarni takomillashtirish;

2. talabalar o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqbuzarliklar, giyohvandlik, erta va qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar;

3. “Kelajak soati” rukni ostidagi “Ma’rifat darslari”, “Qadriyatlar challenji”, “Uch avlod uchrashuvi” kabi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar;

4. sport to‘garaklari, “Besh muhim tashabbus”, “Talabalar ligasi” musobaqalari, teatr va muzeylarga tashriflar;

5. ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini homiylar hisobidan qoplash;

6. talabalar turar joyi, xostel va ijarada yashovchi talabalarning yashash sharoitini muntazam monitoring qilish;

7. ichki tartib va odob-axloq qoidalariga rioya etilishini monitoring qilish;

8. talabalar ilmiy to‘garaklari, volontyorlik va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish harakatini rivojlantirish.

2.3.6.2. Xalqaro hamkorlik siyosati

Maqsad: Institutning xalqaro ta’lim va ilmiy makonga integratsiyasini kuchaytirish va xalqaro nufuzini oshirish.

Asosiy yo‘nalishlar:

1. amaldagi qo‘shma ta’lim dasturlari sifatini hamkor universitetlar bilan birgalikda monitoring qilish va yangi qo‘shma, ikki diplomli dasturlar ochish;

2. Shinjon tibbiyot universiteti bilan qo‘shma dastur talabalarining hamkor universitet klinikasida yozgi malakaviy amaliyotini tashkil etish;

3. xorijiy universitetlar va tibbiyot muassasalari bilan amaliy natijaga yo‘naltirilgan memorandum va kelishuvlar tuzish, ularning ijrosini monitoring qilish;

4. xorijiy talabalar sonini oshirish va geografiyasini kengaytirish;

5. talabalar va professor-o‘qituvchilarning akademik mobilligi, xalqaro anjumanlarda ishtirokini kengaytirish;

6. uzoq muddatli faoliyat uchun xorijiy professor-o‘qituvchilarni jalb etish.

2.3.6.3. Klinik faoliyat va hudud oldidagi ijtimoiy mas’uliyat (uchinchi missiya)

Maqsad: Institutni hudud sog‘liqni saqlash tizimi bilan integratsiyalashgan ta’lim-fan-klinik amaliyot markaziga aylantirish.

Asosiy yo‘nalishlar:

1. klinik bazalar bilan shartnomalarni kengaytirish va hamkor tibbiyot muassasalarida kafedra filiallarini tashkil etish;

2. universitet klinikasi modelini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

3. hudud tibbiyot xodimlari uchun kreditlarga asoslangan uzluksiz kasbiy ta’lim markazini tashkil etish;

4. profilaktik ko‘riklar, skrining va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish tadbirlarida professor-o‘qituvchilar va talabalar ishtiroki;

5. telemeditsina elementlarini o‘qitish va klinik amaliyotga joriy etish.

2.4. Moliyaviy model

Institutning rivojlanishi asosiy faoliyat turlaridan tushadigan daromadlar hajmini oshirishga, moliyaviy resurslardan samarali va maqsadli foydalanishga, xarajatlar va xaridlarning shaffofligiga asoslangan barqaror moliyaviy model bilan ta’minlanadi.

Asosiy daromad manbalari:

- davlat byudjeti mablag‘lari (davlat granti asosida ta’lim, maqsadli dasturlar);
- to‘lov-kontrakt asosidagi ta’lim xizmatlari, shu jumladan qo‘shma ta’lim dasturlari va xorijiy talabalar ta’limi;
- malaka oshirish, qayta tayyorlash va uzluksiz kasbiy ta’lim kurslari;
- ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-texnik va tibbiy xizmatlar, buyurtma asosidagi tadqiqotlar;
- milliy va xalqaro grantlar;
- homiylik mablag‘lari va qonunchilikda ruxsat etilgan boshqa manbalar.

Institut daromadlari va xarajatlari tuzilmasi hamda 2030-yilgacha prognozi 9- va 10-jadvallarda keltirilgan. Pul qiymatidagi ko‘rsatkichlar moliya-iqtisod xizmati tomonidan tasdiqlangan smetalar asosida to‘ldiriladi; prognoz ko‘rsatkichlari 2025-yil qiymatiga nisbatan foizda belgilangan.

9-jadval

Institut daromadlari tuzilmasi va prognozi

Daromad manbai	2025-yil (fakt), mln so‘m	2026	2027	2028	2029	2030
Davlat byudjeti mablag‘lari	44719,0	105 %	110 %	115 %	120 %	125 %
To‘lov-kontrakt asosidagi ta’lim xizmatlari	115175,0	108 %	116 %	125 %	135 %	145 %
Qo‘shma ta’lim dasturlari va xorijiy talabalar ta’limi	2662,0	115 %	130 %	150 %	170 %	190 %
Malaka oshirish va uzluksiz kasbiy ta’lim	1396,0	110 %	130 %	170 %	220 %	280 %
Ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy va tibbiy xizmatlar, grantlar	____	110 %	125 %	145 %	170 %	200 %
Homiylik va boshqa manbalar	____	105 %	110 %	115 %	120 %	125 %
Byudjetdan tashqari daromadlar jami	3563,0	110 %	120 %	135 %	150 %	165 %

10-jadval

Institut xarajatlari tuzilmasi va rivojlanish dasturiga yo‘naltiriladigan mablag‘lar

Xarajat yo‘nalishi	2025-yil (fakt), mln so‘m	2030-yilgacha maqsad
Mehnatga haq to‘lash va unga tenglashtirilgan to‘lovlar	115133,0	Ish haqi fondining o‘z vaqtida va to‘g‘ri rejalashtirilishi, KPI asosidagi rag‘batlantirish ulushini oshirish
O‘quv jarayoni, amaliyot va simulyatsion ta’lim	1008,0	Simulyatsiya markazi va klinik ta’lim xarajatlari ulushini oshirish
Ilmiy faoliyat va innovatsiyalar	____	Ilmiy faoliyatga yo‘naltiriladigan o‘z mablag‘lari ulushini bosqichma-bosqich oshirish
Moddiy-texnik baza, jihozlar va raqamli infratuzilma	1119,0	Investitsiya va ta’mirlash xarajatlarini ustuvorlik asosidagi reja bo‘yicha amalga oshirish
Kommunal xizmatlar va xo‘jalik xarajatlari	813,0	Energiya tejash hisobiga solishtirma xarajatlarni kamaytirish
Talabalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	1684,0	Homiylik va maqsadli mablag‘lar hisobiga qamrovni kengaytirish
Rivojlanish dasturiga yo‘naltiriladigan mablag‘lar (jami)	____	Barcha manbalar hisobidan jami xarajatlarning kamida 10 foizi

Moliyaviy modelni amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar ko‘zda tutiladi:

1. daromad va xarajatlar tahlili asosida 2026-2030-yillar uchun moliyaviy prognoz tuzish va uni har yili yangilash;

2. tasdiqlangan smetalar ijrosini muntazam tahlil qilish, xarajatlarni ustuvorlik asosida rejalashtirish va asossiz xarajatlarning oldini olish;

3. pullik ta’lim xizmatlari, malaka oshirish, qayta tayyorlash, shartnomaviy xizmatlar va qonunchilikda ruxsat etilgan boshqa manbalar hisobiga byudjetdan tashqari daromadlarni oshirish;

4. byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tushum va xarajatlarning alohida tahliliy hisobini yuritish, davriy hisobotlar tayyorlash;

5. kommunal xizmatlar, aloqa, xizmat safarlari va xo‘jalik xarajatlarini optimallashtirish, energiya tejash va muqobil energiya manbalarini joriy etish;

6. davlat xaridlarining asoslanganligi, raqobatliligi va shaffofligini ta’minlash, yillik xarid rejasini shakllantirish;

7. moliyaviy intizom va ichki nazoratni kuchaytirish, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarini oyma-oy monitoring qilish;

8. budjet ijrosi, shartnomalar, to‘lovlar va moddiy resurslar bo‘yicha yagona elektron ma’lumotlar bazasini yaratish;

9. grant, homiylik va hamkorlik loyihalarining moliyaviy ta’minotini muvofiqlashtirish;

10. moliyaviy xatarlarni har yili baholash va moliyaviy KPI asosida choraklik monitoringni yuritish;

11. Institutni rivojlantirish (endaument) jamg‘armasini tashkil etish imkoniyatini o‘rganish.

Natijada 2030-yilga borib byudjetdan tashqari daromadlarni 2025-yil darajasiga nisbatan 65 foizga oshirish, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy xizmatlar va grantlardan tushadigan daromadlarni 2 baravar ko‘paytirish, rivojlanish dasturiga barcha manbalar hisobidan jami xarajatlarning kamida 10 foizini yo‘naltirish maqsad qilinadi.

2.5. Institutni boshqarish tizimi

Rivojlanish dasturini samarali amalga oshirish uchun Institut avtonomiya, akademik mas’uliyat va strategik rejalashtirish tamoyillariga asoslangan moslashuvchan va shaffof boshqaruv tizimini joriy etadi. U quyidagi boshqaruv vazifalarini samarali hal etishni ta’minlaydi:

- strategik boshqaruv;
- ta’lim sifatini boshqarish;
- ilmiy-innovatsion faoliyatni boshqarish;
- moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarish;
- milliy va xalqaro integratsiyani boshqarish;
- tezkor (taktik) boshqaruv.

Boshqaruv tizimining asosiy tavsiflari:

- boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va raqamlashtirish hisobiga ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash va me’yoriy tartibga solishdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlik;
- strategik maqsadlardan bo‘linma va loyiha darajasigacha vazifalarni bosqichma-bosqich taqsimlash orqali strategik boshqaruvni asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) monitoringi bilan integratsiyalash;
- tashqi manfaatdor tomonlar - davlat organlari, tibbiyot muassasalari, ish beruvchilar, talabalar va bitiruvchilarni kollegial boshqaruv organlari orqali boshqaruvga faol jalb etish;
- ISO 21001 xalqaro standarti asosida ta’lim tashkilotini boshqarish tizimini joriy etish.

Rivojlanish dasturini boshqarish organlarining tuzilmasi 11-jadvalda keltirilgan.

11-jadval

Rivojlanish dasturini boshqarish organlari

Boshqaruv organi	Rivojlanish dasturini amalga oshirishdagi vakolatlari
Kuzatuv kengashi	Rivojlanish dasturini ma’qullaydi, uning ijrosi bo‘yicha yillik hisobotni ko‘rib chiqadi, strategik qarorlar qabul qiladi
Institut Kengashi	Rivojlanish dasturi loyihasini va unga kiritiladigan o‘zgartirishlarni ko‘rib chiqadi, yillik tadbirlar rejasini tasdiqlaydi, ijro natijalarini muhokama qiladi
Rektor	Rivojlanish dasturi ijrosiga umumiy rahbarlik qiladi, mas’ul ijrochilarni belgilaydi, resurslarni taqsimlaydi
Rivojlanish dasturini boshqarish bo‘yicha ishchi guruh (strategik ofis)	Rivojlanish dasturi ijrosini muvofiqlashtiradi, maqsadli ko‘rsatkichlar monitoringini yuritadi, choraklik tahliliy ma’lumotnomalar tayyorlaydi; tarkibiga prorektorlar, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari, talabalar va ish beruvchilar vakillari kiritiladi
Prorektorlar	O‘z yo‘nalishi bo‘yicha strategik maqsad va loyihalarning ijrosiga mas’ul; yillik ish rejalarini tuzadi va hisobot beradi
Strategik loyihalar rahbarlari	Strategik loyihalarni amalga oshiradi, natijalar va resurslardan foydalanish bo‘yicha hisobot beradi
Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi	Ichki sifat ta’minoti, so‘rovnomalar, akkreditatsiya talablari bo‘yicha monitoring va tahlil
O‘quv-uslubiy kengash, fakultet kengashlari, kafedralar	Ta’lim dasturlari va fanlar darajasida vazifalarni amalga oshiradi
Talabalar kengashi, bitiruvchilar va ish beruvchilar vakillari	Rivojlanish dasturi ijrosi bo‘yicha fikr-mulohazalar va takliflar beradi

Boshqaruv tizimining modernizatsiyasi fan va ta’lim integratsiyasini ta’minlaydi, qarorlar qabul qilish tezligi va asoslanganligini oshiradi, Institutning hudud sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishdagi rolini mustahkamlaydi.

3. MAQSADLI MODELGA ERISHISH BO‘YICHA REJALASHTIRILGAN CHORA-TADBIRLAR: STRATEGIK MAQSADLAR VA ULARGA ERISHISH STRATEGIYALARI

3.1. 1-strategik maqsad - Klinik yo‘naltirilgan, xalqaro standartlarga mos tibbiy ta’lim

3.1.1. Strategik maqsad mazmunining tavsifi

Institut o‘z oldiga sog‘liqni saqlash tizimi va mehnat bozori talablariga javob beradigan, klinik kompetensiyalarni to‘liq egallagan, xalqaro miqyosda tan olinadigan bitiruvchilarni tayyorlashni strategik maqsad qilib qo‘yadi.

Strategik maqsad tibbiy ta’lim tizimidagi milliy islohotlarga - 2027/2028 o‘quv yilidan Davolash ishi yo‘nalishi negizida 6 yillik “5+1” shaklidagi umumiy tibbiyot bakalavriatining joriy etilishi, barcha tibbiy bakalavriat yo‘nalishlarida bitiruv kursida to‘liq bir yillik amaliyot, oliy hamshiralik ta’limining kengaytirilishi, tibbiyot xodimlarining davlat reyestri va bosqichma-bosqich baholash tizimiga to‘liq moslashishni ko‘zda tutadi.

Asosiy yo‘nalishlar:

- kompetensiyaga asoslangan o‘quv rejalari va fan dasturlari;
- simulyatsion ta’lim va OSKE;
- bir yillik bitiruv amaliyoti va klinik ta’limni kuchaytirish;
- oliy hamshiralik ta’limini rivojlantirish;
- xalqaro akkreditatsiyaga tayyorgarlik;
- xorijiy tillarda o‘qitish va akademik litsey ta’limini takomillashtirish.

3.1.2. Strategik maqsadga erishishning sifat va miqdor koʻrsatkichlari (indikatorlari)

Sifat koʻrsatkichlari:

- oʻquv rejalari va fan dasturlarining kutilgan oʻquv natijalari, kasbiy standartlar va xalqaro standartlarga muvofiqligi;

- talabalar, bitiruvchilar va ish beruvchilarning ta'lim sifatidan qoniqish darajasining oshishi;

- bitiruvchilarning davlat reyestriga kiritish uchun bilim va koʻnikmalarni baholashdan muvaffaqiyatli oʻtishi;

- ta'lim dasturlarining kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan, keyinchalik xalqaro akkreditatsiyadan oʻtishi.

Miqdor koʻrsatkichlari 12-jadvalda keltirilgan.

12-jadval

1-strategik maqsadning miqdor koʻrsatkichlari

№	Koʻrsatkich	Oʻlchov birligi	2025 (baza)	2026	2027	2028	2029	2030
1	Amaldagi qoʻshma ta'lim dasturlari	soni	4	5	5	6	6	7
2	Xalqaro akkreditatsiyaga taqdim etilgan ta'lim dasturlari	soni	0	0	0	0	1	2
3	Simulyatsiya markazidagi oʻquv stansiyalar	soni	8	10	12	15	18	20
4	OSKE bilan yakunlanadigan klinik fanlar ulushi	%	50	60	70	80	90	100
5	Bitiruv kursida bir yillik amaliyot bilan qamrab olingan talabalar ulushi	%	100	100	100	100	100	100
6	Xorijiy tillarda oʻqitiladigan mahalliy talabalar orasida shakllantirilgan guruhlar ulushi	%	7	10	20	20	25	30
7	Talim dasturlarini TOP-300 dasturlar asosida ishlab chiqish	%	40	50	75	78	80	85
8	Bitiruvchi sifat indeksi	%	57	60	75	78	80	85

3.1.3. Strategik maqsadga erishish strategiyasining tavsifi

Strategik maqsadga erishish quyidagi tashabbuslar, harakatlar va chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali ta'minlanadi.

1. Ta'lim dasturlarini yangilash va umumiy tibbiyot "5+1" modeliga oʻtish:

- amaldagi oʻquv rejalari va fan dasturlarini kutilgan oʻquv natijalari asosida tanqidiy baholash, ish beruvchilar va xorijiy hamkorlar ishtirokida qayta ishlab chiqish;

- PF-191-son Farmon talablari asosida umumiy tibbiyot bakalavriatining oʻquv rejasi, bir yillik bitiruv amaliyoti dasturi, kundaligi va baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- joriy kurslar talabalari uchun moslashtirilgan oʻquv rejalarini tasdiqlash;

- fanlarni organ tizimlari va klinik holatlar atrofida integratsiyalash, fanlararo takrorlanishlarni bartaraf etish.

2. Simulyatsion ta'lim va kompetensiyalarni baholash tizimini rivojlantirish:

- simulyatsiya markazini kengaytirish (2030-yilgacha 20 ta bekat), neonatal reanimatsiya, shoshilinch tibbiy yordam, jarrohlik koʻnikmalari, hamshiralik muolajalari boʻyicha bekatlar tashkil etish;

- klinik ssenariylar va OSKE varaqalari bazasini yaratish, klinik fanlarda OSKEni bosqichma-bosqich joriy etish;

- yagona test bazasini shakllantirish va bitiruvchilarni davlat reyestri uchun baholashga tayyorlash.

3. Klinik ta'limni kuchaytirish:

- talabalarning bemor bilan bevosita ishlash vaqtini oshirish, klinik bazalarda haftalik jadvallar asosida ishlashni tashkil etish;

- amaliyot rahbarlarini tayyorlash va ularning faoliyatini monitoring qilish;

- amaliyot natijalari bo‘yicha talabalar, amaliyot rahbarlari va ish beruvchilar fikr-mulohazalarini yig‘ish va tahlil qilish.

4. Oliy hamshiralik ta’limini rivojlantirish:

- qabul kengayishiga mos professor-o‘qituvchilar, o‘quv xonalari va klinik bazalar ehtiyojini rejalashtirish;

- hamshiralik ko‘nikmalari simulyatsiya xonalarini tashkil etish;

- ta’lim dasturini JSST tavsiyalari va xalqaro tajriba asosida takomillashtirish, kasblararo mashg‘ulotlarni joriy etish.

5. Ta’lim dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish:

- WFME standartlarining 8 ta sohasi bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash o‘tkazish;

- WFME tomonidan tan olingan akkreditatsiya agentligi bilan hamkorlik kelishuvini tuzish, xorijiy tajribaga ega mutaxassislardan iborat ishchi guruh tuzish;

- aniqlangan tafovutlarni bartaraf etish va 2030-yilgacha kamida 2 ta dasturni xalqaro akkreditatsiyaga taqdim etish.

6. Xorijiy tillarda o‘qitish va qo‘shma dasturlar sifatini ta’minlash:

- mutaxassislik fanlaridan xorijiy til sertifikatiga ega professor-o‘qituvchilar zaxirasini shakllantirish va ular asosida o‘quv rejalarini tuzish;

- hamkor universitetlar bilan onlayn darslar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

- Sog‘liq bilimlari universiteti bilan “4,5+1,5” shaklidagi Davolash ishi dasturini sifatli amalga oshirish.

7. Akademik litsey ta’limini takomillashtirish:

- litsey o‘quv dasturlarini tibbiy ta’limga tayyorlov yo‘nalishida yangilash;

- A-level va SAT xalqaro baholash tizimlari talablarini o‘rganish;

- litsey bitiruvchilarining oliy ta’limga kirish natijalarini tahlil qilish.

3.2. 2-strategik maqsad - Hudud aholisi salomatligi muammolariga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar

3.2.1. Strategik maqsad mazmunining tavsifi

Institut Xorazm viloyati va Orolbo‘yi hududi aholisi salomatligining dolzarb muammolariga yo‘naltirilgan fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirishni, ilmiy natijalarni sog‘liqni saqlash amaliyotiga joriy etish va tijoratlashtirishni strategik maqsad qilib qo‘yadi.

Strategik maqsad Institutni Orolbo‘yi hududi tibbiy-ekologik muammolari bo‘yicha xalqaro miqyosda tan olingan ilmiy markazga aylantirish, ilmiy faoliyatni KPI asosida boshqarish va ilmiy kadrlar tayyorlashni tezlashtirishni ko‘zda tutadi.

Asosiy yo‘nalishlar:

- Orolbo‘yi hududi aholisi salomatligiga ekologik omillar (suv sifati, tuproq va havo ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi) ta’siri;

- onalik va bolalik salomatligi, perinatal tibbiyot va pediatriya;

- yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, erta diagnostikasi va davolash;

- klinik tibbiyotda innovatsion texnologiyalar, telemeditsina va raqamli sog‘liqni saqlash;

- ilmiy etika va tadqiqotlar sifati.

3.2.2. Strategik maqsadga erishishning sifat va miqdor ko‘rsatkichlari (indikatorlari)

Sifat ko‘rsatkichlari:

- Institut ilmiy natijalarining respublika va xalqaro ilmiy hamjamiyatda tan olinishi;

- klinik bazalar va tibbiyot muassasalari bilan qo‘shma tadqiqotlarning kengayishi;

- ilmiy natijalarning joriy etish dalolatnomalari bilan tasdiqlangan holda amaliyotga tatbiq etilishi;

- ilmiy faoliyatni boshqarish va monitoring qilishning raqamli tizimi.

Miqdor ko‘rsatkichlari 13-jadvalda keltirilgan.

13-jadval

2-strategik maqsadning miqdor ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2025 (baza)	2026	2027	2028	2029	2030
1	Scopus va Web of Science bazalaridagi maqolalar (yillik)	indeks	100 %	115 %	130 %	150 %	175 %	200 %
2	Himoya qilingan PhD va DSc dissertatsiyalari (yillik)	soni	____	____	____	____	____	____
3	Amaldagi ilmiy grant loyihalari (milliy va xalqaro)	soni	____	+1	+2	+3	+4	+5
4	Patentlar va EHM dasturlari uchun guvohnomalar (yillik)	indeks	100 %	110 %	125 %	140 %	160 %	180 %
5	Joriy etish dalolatnomasi bilan tasdiqlangan ilmiy ishlanmalar (yillik)	soni	____	____	____	____	____	____
6	Ilmiy to‘garaklarga jalb etilgan talabalar ulushi	%	____	12	15	18	22	25
7	Institutda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar (yillik)	soni	____	1	1	2	2	2

3.2.3. Strategik maqsadga erishish strategiyasining tavsifi

Strategik maqsadga erishish quyidagi tashabbuslar, harakatlar va chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

1. Ilmiy faoliyatni strategik rejalashtirish:

- Institut ilmiy salohiyatini tahlil qilish va ustuvor ilmiy yo‘nalishlarni tasdiqlash;
- kafedralar kesimida ilmiy KPIlarni belgilash va choraklik hisobotlarni tahlil qilish;
- ilmiy faoliyat, nashrlar va loyihalar bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish.

2. Ilmiy salohiyatni oshirish:

- PhD va DSc dissertatsiyalarini tayyorlash va himoya qilishni qo‘llab-quvvatlash;
- tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilik orqali ilmiy kadrlar tayyorlash, ilmiy rahbarlar bazasini shakllantirish;
- yosh olimlar kengashi faoliyatini kuchaytirish.

3. Xalqaro nashrlar va grantlar:

- Scopus va Web of Science jurnallarida nashr etishni rag‘batlantirish, ilmiy maqola yozish bo‘yicha o‘quvlar o‘tkazish;
- milliy va xalqaro grant tanlovlarida ishtirok etish, loyihalar tayyorlash bo‘yicha maslahat xizmatini tashkil etish;
- Springer, Web of Science va boshqa xalqaro ma’lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish.

4. Klinik tadqiqotlar va ilmiy infratuzilma:

- klinik bazalar bilan hamkorlikda dolzarb tibbiy muammolar bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish;
- ilmiy laboratoriyalarni modernizatsiya qilish, zamonaviy uskunalar va ilmiy bazalardan foydalanishni kengaytirish;
- “Orolbo‘yi salomatligi” hududiy ilmiy-amaliy markazini tashkil etish (5.1-bandga qarang).

5. Innovatsiyalar va tijoratlashtirish:

- innovatsion g‘oyalarni aniqlash, patentlash va amaliyotga joriy etish;
- ilmiy natijalarni tibbiyot muassasalari va ishlab chiqarishga tatbiq etish, hamkorlar jalb qilish;
- joriy etish dalolatnomalari va tibbiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash.

6. Ilmiy etika va tadqiqotlar sifati:

- akademik halollik, plagiatning oldini olish va tadqiqot metodologiyasi bo‘yicha o‘quvlar;
- tibbiy tadqiqotlar bo‘yicha etika qo‘mitasi faoliyatini takomillashtirish.

7. Talabalar va yosh olimlar ilmiy faoliyati:

- ilmiy to‘garaklar, olimpiadalar va talabalar ilmiy anjumanlarini tashkil etish;
- startap loyihalari tanlovlarini o‘tkazish.

8. Ilmiy anjumanlar:

- Xorazm va Orolbo‘yi hududi tibbiy muammolari bo‘yicha har yili respublika va xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlar o‘tkazish.

3.3. 3-strategik maqsad - Xalqarolashtirish va qo‘shma ta’lim dasturlarini rivojlantirish

3.3.1. Strategik maqsad mazmunining tavsifi

Institut xalqaro ta’lim va ilmiy makonga integratsiyani kuchaytirish, qo‘shma ta’lim dasturlari sifatini ta’minlash va ularni kengaytirish, akademik mobillik va xorijiy talabalar sonini oshirish orqali xalqaro nufuzini mustahkamlashni strategik maqsad qilib qo‘yadi.

Strategik maqsad Privoljye tadqiqot tibbiyot universiteti, Shinjon tibbiyot universiteti va Sog‘liq bilimlari universiteti bilan amalga oshirilayotgan dasturlar tajribasiga tayanadi va hamkorlik geografiyasini kengaytirishni ko‘zda tutadi.

Asosiy yo‘nalishlar:

- qo‘shma ta’lim dasturlari sifatini ta’minlash va yangi qo‘shma, ikki diplomli dasturlar ochish;
- xalqaro hamkorlik tarmog‘ini kengaytirish;
- xorijiy talabalarni jalb etish;
- akademik mobillik va xalqaro ilmiy tadbirlar;
- xorijiy professor-o‘qituvchilarni jalb etish.

3.3.2. Strategik maqsadga erishishning sifat va miqdor ko‘rsatkichlari (indikatorlari)

Sifat ko‘rsatkichlari:

- qo‘shma ta’lim dasturlari talabalari va bitiruvchilarining yuqori natijalari;
- xorijiy hamkorlar bilan kelishuvlarning amaliy natijadorligi;
- Institutning xalqaro ta’lim bozoridagi tanilganligi.

Miqdor ko‘rsatkichlari 14-jadvalda keltirilgan.

14-jadval

3-strategik maqsadning miqdor ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2025 (baza)	2026	2027	2028	2029	2030
1	Amaldagi qo‘shma va ikki diplomli ta’lim dasturlari	soni	4	5	5	6	6	7
2	Xorijiy talabalar soni	indeks	100 %	110 %	125 %	140 %	160 %	180 %
3	Akademik mobillik dasturlarida ishtirok etgan talabalar (yillik)	nafar	25	39	50	60	70	80
4	Akademik mobillik dasturlarida ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar (yillik)	nafar	0	2	2	3	4	5
5	Uzoq muddatli faoliyat yuritayotgan xorijiy professor-o‘qituvchilar	nafar	1	3	5	7	10	12
6	Amaliy natijali hamkorlik kelishuvlari mavjud xorijiy tashkilotlar	soni	60	67	68	70	72	74
7	Xalqaro anjumanlarda ma’ruza bilan ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar (yillik)	nafar	5	7	10	12	15	18

3.3.3. Strategik maqsadga erishish strategiyasining tavsifi

Strategik maqsadga erishish quyidagi tashabbuslar, harakatlar va chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

1. Qo‘shma ta’lim dasturlarini rivojlantirish:

- amaldagi dasturlar sifatini hamkor universitetlar bilan birgalikda monitoring qilish, o‘quv rejalari va baholash amaliyotini muvofiqlashtirish;
- Shinjon tibbiyot universiteti bilan qo‘shma dastur talabalarining yozgi malakaviy amaliyotini hamkor universitet klinikasida tashkil etish: muddatlar, talabalar ro‘yxati, dastur va tashkiliy masalalarni kelishish;
- xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari tajribasi asosida yangi qo‘shma va ikki diplomli dasturlarni ishlab chiqish.

2. Xalqaro hamkorlik tarmog‘ini kengaytirish:

- xorijiy universitetlar va tibbiyot muassasalari bilan hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini o‘rganish;
- salohiyatli hamkorlarni aniqlash, muzokaralar olib borish, o‘zaro manfaatli memorandum va kelishuvlar tuzish;
- imzolangan kelishuvlar ijrosini monitoring qilish, davriy hisobotlar tayyorlash va samaradorlikni oshirish bo‘yicha takliflar kiritish.

3. Xorijiy talabalarni jalb etish:

- xorijiy fuqarolarni o‘qishga jalb qilish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- xorijiy ta’lim tashkilotlari, ta’lim agentliklari va hamkor muassasalar bilan ishlashni kuchaytirish;
- xorijiy abituriyentlarga ta’lim dasturlari va qabul shartlari to‘g‘risida axborot berish, yangi mamlakatlardan abituriyentlarni jalb etish va qabul ko‘rsatkichlarini monitoring qilish.

4. Xorijiy professor-o‘qituvchilarni jalb etish:

- Institut ehtiyojidan kelib chiqib nomzodlarni izlash va saralash;
- hujjatlarni rasmiylashtirish va faoliyat yuritishiga oid tashkiliy masalalarni hal etish;
- jalb etilgan mutaxassislar faoliyatini monitoring qilish.

5. Akademik mobillik va xalqaro tadbirlar:

- professor-o‘qituvchilarning xorijda malaka oshirishi va stajirovkasini tashkil etish;
- xalqaro anjumanlar, kongresslar va simpoziumlar to‘g‘risida ma’lumotlarni muntazam taqdim etish, ishtirok uchun tashkiliy ko‘mak ko‘rsatish;
- talabalar almashinuvi dasturlarini tashkil etish.

3.4. 4-strategik maqsad - Integratsiyalashgan raqamli ekotizim

3.4.1. Strategik maqsad mazmunining tavsifi

Institut zamonaviy axborot tizimlari va resurslaridan foydalangan holda ta’lim, ilmiy, moliyaviy va boshqaruv jarayonlarini qamrab oluvchi integratsiyalashgan raqamli ekotizimni shakllantirishni strategik maqsad qilib qo‘yadi.

Raqamli ekotizim talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun ta’lim resurslaridan istalgan vaqtda foydalanish, boshqaruv qarorlarini ma’lumotlar asosida qabul qilish va hisobotlarni tezkor tayyorlash imkonini beradi.

Asosiy yo‘nalishlar:

- raqamli ta’lim kontenti va virtual klinik holatlar;
- sun’iy intellektdan ta’limda etik foydalanish;
- raqamli boshqaruv va moliyaviy jarayonlarni raqamlashtirish;
- AKT infratuzilmasi va axborot xavfsizligi;
- xalqaro elektron ilmiy-ta’lim resurslari.

3.4.2. Strategik maqsadga erishishning sifat va miqdor ko‘rsatkichlari (indikatorlari)

Sifat ko‘rsatkichlari:

- ta’lim, ilmiy va boshqaruv jarayonlarining yagona raqamli muhitda yuritilishi;

- talabalar va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari oshishi;
- axborot xavfsizligining ta’minlanishi.

Miqdor ko‘rsatkichlari 15-jadvalda keltirilgan.

15-jadval

4-strategik maqsadning miqdor ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2025 (baza)	2026	2027	2028	2029	2030
1	Kompyuterlar soni	soni	724	780	840	900	950	1000
2	Internetga ulangan kompyuterlar ulushi	%	88,7	95	100	100	100	100
3	Wi-Fi hududlari	soni	70	80	90	100	110	120
4	HEMIS tizimida elektron o‘quv resurslari bilan to‘liq ta’minlangan fanlar ulushi	%	55	70	85	90	100	100
5	Virtual klinik holatlar bazasidagi holatlar	soni	0	50	150	300	450	600
6	Raqamlashtirilgan boshqaruv jarayonlari (ta’lim, ilmiy, moliyaviy, kadrlar) ulushi	%	50	55	60	75	90	100
7	AKTni yuqori darajada o‘zlashtirgan professor-o‘qituvchilar ulushi	%	75	85	90	100	100	100

3.4.3. Strategik maqsadga erishish strategiyasining tavsifi

Strategik maqsadga erishish quyidagi tashabbuslar, harakatlar va chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

1. Raqamli ta’lim kontentini yaratish:

- fanlar bo‘yicha videoma’ruzalar va elektron darsliklarni yaratish va HEMIS tizimiga joylashtirish;
- virtual klinik holatlar bazasini yaratish va o‘qitishda qo‘llash;
- elektron jurnal va baholash tizimini to‘liq yuritish.

2. Sun’iy intellektdan foydalanish:

- talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun sun’iy intellektdan etik foydalanish qoidalarini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- sun’iy intellekt yordamida yaratilgan matnlarni aniqlash va akademik halollikni ta’minlash bo‘yicha o‘quvlar o‘tkazish.

3. Raqamli boshqaruv:

- budjet ijrosi, shartnomalar, to‘lovlar, xarajatlar va moddiy resurslar bo‘yicha elektron monitoring jadvallari va yagona ma’lumotlar bazasini yaratish;
- ilmiy faoliyat, nashrlar va loyihalar bo‘yicha elektron bazani shakllantirish;
- Rivojlanish dasturi ko‘rsatkichlari monitoringini raqamlashtirish.

4. AKT infratuzilmasi:

- kompyuter parkini yangilash, Wi-Fi qamrovi va internet tezligini oshirish;
- zaxira nusxalash va axborot xavfsizligi siyosatini joriy etish.

5. “Raqamli tibbiyot” loyihasini amalga oshirish (4-bo‘limga qarang).

3.5. 5-strategik maqsad - Yuqori malakali professor-o‘qituvchilar jamoasini shakllantirish

3.5.1. Strategik maqsad mazmunining tavsifi

Institut ta’lim, ilmiy tadqiqot va klinik faoliyatda yetakchilikni ta’minlaydigan, ilmiy salohiyatli va xalqaro tajribaga ega jamoani shakllantirishni strategik maqsad qilib qo‘yadi.

Strategik maqsad ilmiy darajali kadrlar ulushini 2030-yilgacha 45 foizga yetkazish, yosh o‘qituvchilarni ilmiy faoliyatga jalb etish, xalqaro tajriba almashinuvi va natijaga asoslangan rag‘batlantirish tizimini joriy etishni ko‘zda tutadi.

Asosiy yo‘nalishlar:

- ochiq tanlov asosida kadrlarni jalb etish;
- ilmiy kadrlar tayyorlash;

- uzluksiz kasbiy rivojlanish;
- xalqaro tajriba;
- KPI va rag‘batlantirish.

3.5.2. Strategik maqsadga erishishning sifat va miqdor ko‘rsatkichlari (indikatorlari)

Sifat ko‘rsatkichlari:
- kafedralarda ilmiy salohiyatning bir tekis taqsimlanishi;
- professor-o‘qituvchilarning pedagogik, raqamli va xorijiy til kompetensiyalari oshishi;
- kadrlar qo‘nimsizligining kamayishi.

Miqdor ko‘rsatkichlari 16-jadvalda keltirilgan.

16-jadval

5-strategik maqsadning miqdor ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2025 (baza)	2026	2027	2028	2029	2030
1	Ilmiy darajali professor-o‘qituvchilar ulushi (asosiy shtat)	%	30,0	32	35	38	41	45
2	Fan doktorlari (DSc)	nafar	17	19	21	24	27	30
3	Ilmiy darajali kadrlar ulushi 20 % dan past bo‘lgan kafedralar	soni	____	____	____	____	____	0
4	Xorijiy til sertifikatiga (B2 va undan yuqori) ega professor-o‘qituvchilar ulushi	%	30	40	50	60	70	80
5	Xorijda stajirovka va malaka oshirishdan o‘tgan professor-o‘qituvchilar (2026-yildan jamlanma)	nafar	-	10	25	45	70	100
6	KPI asosida baholangan professor-o‘qituvchilar ulushi	%	0	50	100	100	100	100

3.5.3. Strategik maqsadga erishish strategiyasining tavsifi

Strategik maqsadga erishish quyidagi tashabbuslar, harakatlar va chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

1. Kadrlarni ochiq tanlov asosida jalb etish:
- kafedralar kesimida ilmiy darajali kadrlarga ehtiyojni aniqlash;
- ilmiy darajali va klinik tajribali mutaxassislarni tanlov asosida qabul qilish.

2. Ilmiy kadrlar tayyorlash:
- yosh o‘qituvchilarni tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka yo‘naltirish;
- ilmiy rahbarlik salohiyatini oshirish, ustoz-shogird tizimini joriy etish.

3. Uzluksiz kasbiy rivojlanish:
- Institut va uning ilmiy-tadqiqot instituti professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilari uchun masofaviy ta’lim, o‘quv kurslari, malaka oshirish va seminarlar ko‘lamini oshirish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ingliz tili bo‘yicha o‘quv kurslari;
- pedagogik mahorat, simulyatsion o‘qitish va baholash bo‘yicha metodik seminarlar, ochiq darslar va o‘zaro dars tahlillari.

4. Xalqaro tajriba:
- professor-o‘qituvchilarning mutaxassisligi va kasbiy ehtiyojidan kelib chiqib xorijda malaka oshirish yo‘nalishlarini belgilash;
- hamkorlar bilan malaka oshirish dasturlari bo‘yicha kelishuvlarga erishish va nomzodlarni saralash.

5. KPI va rag‘batlantirish:
- rahbar va professor-o‘qituvchilar faoliyatini KPI asosida baholash tizimini joriy etish;

- natijalarga koʻra moddiy ragʻbatlantirish, “Institutning eng yaxshi oʻqituvchisi” tanlovini oʻtkazish.

3.6. 6-strategik maqsad - Zamonaviy, qulay va xavfsiz ta’lim, ilmiy va yashash muhiti

3.6.1. Strategik maqsad mazmunining tavsifi

Institut talabalar, professor-oʻqituvchilar va xodimlar uchun zamonaviy, qulay, xavfsiz va inklyuziv ta’lim, ilmiy va yashash muhitini yaratishni strategik maqsad qilib qoʻyadi.

Strategik maqsad oʻquv va laboratoriya xonalarining xavfsizlik va ergonomika talablariga muvofiqligini ta’minlash, binolarni inklyuziv talablarga moslashtirish, talabalarni ijtimoiy-psixologik qoʻllab-quvvatlash va energiya tejamkor kampusni rivojlantirishni koʻzda tutadi.

Asosiy yoʻnalishlar:

- oʻquv va laboratoriya xonalarini jihozlash va pasportlashtirish;
- inklyuziv muhit;
- talabalar turar joylari va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash;
- sport va madaniy infratuzilma;
- energiya tejamkorlik.

3.6.2. Strategik maqsadga erishishning sifat va miqdor koʻrsatkichlari (indikatorlari)

Sifat koʻrsatkichlari:

- oʻquv xonalari, laboratoriyalar va simulyatsiya markazining xavfsizlik va ergonomika talablariga toʻliq muvofiqligi;
- imkoniyati cheklangan talabalar uchun toʻsiqsiz muhit;
- talabalarning ta’lim muhitidan qoniqish darajasining oshishi.

Miqdor koʻrsatkichlari 17-jadvalda keltirilgan.

17-jadval

6-strategik maqsadning miqdor koʻrsatkichlari

№	Koʻrsatkich	Oʻlchov birligi	2025 (baza)	2026	2027	2028	2029	2030
1	Xavfsizlik va ergonomika boʻyicha texnik pasportga ega oʻquv va laboratoriya xonalari ulushi	%	0	50	100	100	100	100
2	Inklyuziv talablarga moslashtirilgan oʻquv binolari ulushi	%	____	____	____	____	____	100
3	1-3-kurs guruhlarining tyutorlar bilan qamrab olinishi	%	100	100	100	100	100	100
4	Homiylar hisobidan kontrakt toʻlovi qoplangan ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar (yillik)	nafar	60	69	75	80	100	120
5	Kommunal resurslar (elektr energiyasi, gaz, suv) sarfi	indeks	100 %	98 %	95 %	92 %	90 %	88 %

3.6.3. Strategik maqsadga erishish strategiyasining tavsifi

Strategik maqsadga erishish quyidagi tashabbuslar, harakatlar va chora-tadbirlar majmuini amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

1. Oʻquv va laboratoriya xonalarini rivojlantirish:

- oʻquv, laboratoriya va simulyatsiya xonalarini zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash;
- yagona shakldagi xavfsizlik va ergonomika boʻyicha texnik pasportni tasdiqlash, barcha xonalarda oʻlchovlar oʻtkazish va pasportlarni har yili yangilash.

2. Inklyuziv muhit:

- binolarni pandus, lift, maxsus jihozlangan xonalar va hojatxonalar bilan ta’minlash;

- imkoniyati cheklangan talabalar uchun moslashtirilgan o‘quv materiallari va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari.

3. Talabalarni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash:

- psixologik xizmat va onlayn maslahatlarni kengaytirish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar ro‘yxatini shakllantirish va kontrakt to‘lovlarini homiylar hisobidan qoplash;
- talabalar turar joyi, xostel va ijarada yashovchi talabalarning yashash joylari bo‘yicha elektron baza yaratish, dekanlar va tyutorlar orqali monitoring.

4. Sport va madaniy muhit:

- talabalarning qiziqishidan kelib chiqib yangi sport to‘garaklarini tashkil etish, musobaqa g‘oliblarini rag‘batlantirish;
- Xorazm viloyatidagi teatr va muzeylar bilan shartnomalar tuzish va tashriflar tashkil etish.

5. Energiya tejamkor kampus:

- elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv va issiqlik iste’molini hisobga olish va raqamlashtirish;
- tejamkor uskunalar va muqobil energiya manbalarini bosqichma-bosqich joriy etish.

4. “RAQAMLI TIBBIYOT” LOYIHASI

4.1. Loyiha tavsifi

“Raqamli tibbiyot” loyihasi bo‘lajak shifokorlar, provizorlar, oliy ma’lumotli hamshiralar va biotibbiyot muhandislarida sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, elektron tibbiy hujjatlar, telemeditsina va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Loyihaning asosiy yondashuvi - barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun yagona sifat standarti: “Raqamli tibbiyot” moduli umumkasbiy kompetensiyalarni to‘ldiradi va har bir yo‘nalishning kasbiy fanlari bilan bog‘langan amaliy topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Bu bitiruvchilarni o‘z mutaxassisligi xususiyatini hisobga olgan holda, lekin yagona standart asosida tayyorlash va ularning kasbiy faoliyatda raqamli tizimlar orqali o‘zaro hamkorlik qilishini ta’minlaydi.

Loyihani amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar va resurslar rejalashtirilgan:

- “Raqamli tibbiyot” modulining o‘quv dasturini ishlab chiqish: tibbiy axborot tizimlari, elektron tibbiy karta, telemeditsina, tibbiy ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt asoslari va uning tibbiyotdagi etik jihatlari, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish;
- modulni tanlov fani yoki qo‘shimcha ta’lim dasturi sifatida bosqichma-bosqich joriy etish va har o‘quv yilida tegishli kurs talabalarining kamida 30 foizini qamrab olish;
- Sog‘liqni saqlash vazirligining axborot tizimlari va hududiy tibbiyot muassasalarida qo‘llanilayotgan tibbiy axborot tizimlarida ishlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- IT-kompaniyalar va tibbiyot muassasalarini o‘qitish jarayoniga jalb etish;
- loyiha natijalarini - shakllangan kompetensiyalarni tahlil qiluvchi ishchi guruh tuzish va dasturga tuzatishlar kiritish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar tayyorlash;
- professor-o‘qituvchilar uchun raqamli tibbiyot va sun’iy intellekt bo‘yicha malaka oshirish kurslari.

18-jadval

“Raqamli tibbiyot” loyihasining maqsadli ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2026	2027	2028	2029	2030
Modul o‘quv dasturi tasdiqlangan	tasdiqlangan	-	-	-	-
Modul bilan qamrab olingan talabalar ulushi (tegishli kurs), %	-	10	20	30	30
Modul bo‘yicha malaka oshirgan professor-o‘qituvchilar, nafar (jamlanma)	10	25	40	55	70
Hamkor IT-kompaniyalar va tibbiyot muassasalari, soni	1	2	3	4	5

5. INSTITUTNING STRATEGIK LOYIHALARI

Rivojlanish dasturining strategik maqsadlariga erishish uchta strategik loyiha orqali jadallashtiriladi. Strategik loyihalar Institutning noyob resurslari va hudud ehtiyojlariga tayanadi, har biri uchun rahbar tayinlanadi, alohida reja, byudjet va natija ko‘rsatkichlari belgilanadi.

5.1. “Orolbo‘yi salomatligi” hududiy ilmiy-amaliy markazi

5.1.1. Strategik loyihaning maqsadi va vazifalari

Maqsad: Orolbo‘yi ekologik inqirozi hududida yashovchi aholi salomatligiga ekologik va ijtimoiy omillar ta’sirini kompleks o‘rganish, profilaktika, erta diagnostika va davolash bo‘yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish va sog‘liqni saqlash amaliyotiga joriy etish.

Vazifalar:

1. Institut ilmiy-tadqiqot instituti negizida klinik va fundamental kafedralar olimlarini birlashtiruvchi fanlararo markaz tashkil etish;
2. hudud aholisi salomatligi bo‘yicha ma’lumotlar bazasi (registr) va monitoring tizimini yaratish;
3. onalik va bolalik salomatligi, yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar bo‘yicha kogort va klinik tadqiqotlar o‘tkazish;
4. xalqaro grant dasturlari va hamkorlar bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish;
5. natijalarni viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan birgalikda amaliyotga joriy etish.

5.1.2. Strategik loyihaning tavsifi

Markaz ilmiy-tadqiqot instituti, klinik kafedralar va viloyat tibbiyot muassasalari hamkorligida faoliyat yuritadi. Markaz doirasida suv sifati va ekologik omillarning aholi salomatligiga ta’siri, bolalar va homilador ayollarda kamqonlik va boshqa kasalliklar, yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar dasturi amalga oshiriladi.

Markaz yosh olimlar va doktorantlar uchun ilmiy maktab vazifasini bajaradi, uning natijalari o‘quv dasturlariga, birinchi navbatda jamoat salomatligi, pediatriya va gigiyena fanlariga joriy etiladi.

5.1.3. Strategik loyihaning asosiy natijalari

- hudud aholisi salomatligi bo‘yicha ilmiy asoslangan ma’lumotlar bazasi;
- xalqaro ilmiy nashrlar va grant loyihalari soni oshishi;
- sog‘liqni saqlash amaliyotiga joriy etilgan profilaktika va diagnostika tavsiyalari;
- markaz doirasida tayyorlangan PhD va DSc dissertatsiyalari.

19-jadval

“Orolbo‘yi salomatligi” hududiy ilmiy-amaliy markazi strategik loyihasining natija ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2026	2027	2028	2029	2030
Markaz faoliyati (holat)	tashkil etilgan	ishlamoqda	ishlamoqda	ishlamoqda	ishlamoqda
Amaldagi ilmiy loyihalar, soni	2	3	4	5	6
Xalqaro hamkorlar, soni	1	2	3	3	4
Scopus va WoS bazalaridagi maqolalar (yillik)	10	15	30	40	50
Joriy etilgan tavsiyalar (jamlanma)	0	1	3	5	8

5.2. Klinik ko‘nikmalar va akkreditatsiya-simulyatsiya markazi

5.2.1. Strategik loyihaning maqsadi va vazifalari

Maqsad: Simulyatsiya markazini talabalar, rezidentlar va amaliyotdagi tibbiyot xodimlarining klinik ko‘nikmalarini o‘qitish va ob’ektiv baholash markaziga aylantirish.

Vazifalar:

1. simulyatsiya bekatlari sonini 2030-yilgacha 20 taga yetkazish;
2. OSKE va kompetensiyalarni baholash uchun standartlashtirilgan ssenariylar bazasini yaratish;
3. standartlashtirilgan bemorlar va instruktorlar tayyorlash;

4. markazni tibbiyot xodimlarini baholash va uzluksiz kasbiy ta’lim uchun foydalanishga tayyorlash.

5.2.2. Strategik loyihaning tavsifi

Markaz terapiya, jarrohlik, pediatriya va neonatologiya, akusherlik-ginekologiya, shoshilinch tibbiy yordam, hamshiralik ishi va stomatologiya bo‘yicha bekatlarni o‘z ichiga oladi. Har bir bekat xavfsizlik va ergonomika bo‘yicha texnik pasportga, klinik ssenariylar va baholash varaqalariga ega bo‘ladi.

Markaz bitiruv kursidagi bir yillik amaliyotga tayyorlov, OSKE asosidagi yakuniy attestatsiya va hudud tibbiyot xodimlari uchun simulyatsion treninglar bazasi bo‘lib xizmat qiladi.

5.2.3. Strategik loyihaning asosiy natijalari

- barcha klinik fanlarda OSKE joriy etilgan;
- bitiruvchilarning amaliy tayyorgarligi ob’ektiv baholanadi;
- simulyatsion treninglar tibbiyot xodimlari uchun pullik xizmat sifatida taklif etiladi.

20-jadval

“Klinik ko‘nikmalar va akkreditatsiya-simulyatsiya markazi” strategik loyihasining natija ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2026	2027	2028	2029	2030
O‘quv bekatlari, soni	10	12	15	18	20
OSKE ssenariylari bazasi, soni	30	60	100	140	180
Tayyorlangan instruktorlar, nafar (jamlanma)	10	20	30	40	50
Simulyatsion treninglardan o‘tgan tibbiyot xodimlari (yillik), nafar	-	100	200	300	400

5.3. Uzluksiz kasbiy ta’lim va universitet klinikasi

5.3.1. Strategik loyihaning maqsadi va vazifalari

Maqsad: Institutni hudud tibbiyot xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlanish markaziga aylantirish va universitet klinikasi modeli orqali ta’lim, fan va klinik amaliyot integratsiyasini ta’minlash.

Vazifalar:

1. hudud tibbiyot xodimlari uchun kreditlarga asoslangan malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish va akkreditatsiyadan o‘tkazish;
2. masofaviy va aralash shakldagi kurslarni joriy etish;
3. klinik bazalardan biri negizida universitet klinikasini tashkil etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va vakolatli organlarga kiritish;
4. hamkor tibbiyot muassasalarida kafedra filiallarini tashkil etish.

5.3.2. Strategik loyihaning tavsifi

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining davlat reyestri (2027-yildan ixtiyoriy, 2030-yildan majburiy) va yillik kreditlar tizimi joriy etilishi hududda uzluksiz kasbiy ta’limga katta talabni yuzaga keltiradi. Institut viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda ehtiyojni o‘rganib, ustuvor yo‘nalishlar (kardiologiya, shoshilinch tibbiy yordam, onkologiya, pediatriya, hamshiralik ishi) bo‘yicha dasturlar ishlab chiqadi.

Universitet klinikasi modeli ta’lim, ilmiy tadqiqot va klinik amaliyotni bitta muassasada birlashtiradi, bir yillik bitiruv amaliyoti va rezidentura uchun asosiy baza bo‘lib xizmat qiladi.

5.3.3. Strategik loyihaning asosiy natijalari

- yiliga 800 nafargacha tinglovchi uzluksiz kasbiy ta’lim kurslarida o‘qiydi;
- byudjetdan tashqari daromadlar oshadi;
- universitet klinikasi bo‘yicha asoslangan takliflar amalga oshiriladi;
- kafedra filiallari soni 10 taga yetadi.

21-jadval

“Uzluksiz kasbiy ta’lim va universitet klinikasi” strategik loyihasining natija ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2026	2027	2028	2029	2030
Akkreditatsiyadan o‘tgan kreditli dasturlar, soni	-	5	10	15	20
Tinglovchilar (yillik), nafar	-	200	400	600	800
Kafedra filiallari (2025-yilga nisbatan qo‘shimcha), soni	2	4	6	8	10
Institut klinikasi (holat)	o‘rganish	takliflar kiritilgan	tashkiliy ishlar	faoliyat	faoliyat

6. RIVOJLANISH DASTURINI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA CHORA-TADBIRLAR REJASI (2026-2030-YILLAR)

Chora-tadbirlar rejasi Institut prorektorlarining o‘quv, ilmiy, xalqaro, yoshlar va moliya-iqtisod yo‘nalishlari bo‘yicha 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan rejalari asosida shakllantirilgan va strategik maqsadlar bo‘yicha guruhlangan. Taxminiy xarajatlar (mln so‘m) moliya-iqtisod xizmati tomonidan yillik moliyaviy reja (smeta) asosida to‘ldiriladi; qo‘shimcha mablag‘ talab etilmaydigan tadbirlar uchun “-” belgisi qo‘yilgan.

№	Chora-tadbir	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Moliyalashtirish manbai	Taxminiy xarajat, mln so‘m	Mas’ul ijrochilar	Kutilayotgan natija (tasdiqlovchi hujjat)
1-strategik maqsad. Klinik yo‘naltirilgan, xalqaro standartlarga mos tibbiy ta’lim							
1	Ta’lim jarayonini xalqaro tibbiy ta’lim standartlariga muvofiqlashtirish	1. Amaldagi o‘quv rejalari va fan dasturlarini kutilgan o‘quv natijalari asosida tanqidiy baholash. 2. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘zgartirishlarni kiritish. 3. Kredit-modul tizimi talablarini to‘liq ta’minlash.	2026-2030-yillar	Qo‘shimcha mablag‘ talab etilmaydi	-	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor M.I.Ollaberganov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i S.R.Kurbanov, fakultet dekanlari	Yangilangan o‘quv rejalari va fan dasturlari
2	Umumiy tibbiyot “5+1” bakalavriatiga va bitiruv kursida bir yillik amaliyotga o‘tishga tayyorgarlik	1. Ishchi guruh tuzish va PF-191-son Farmon talablarini tahlil qilish. 2. Yangi o‘quv rejasi, amaliyot dasturi, kundalik va baholash mezonlarini ishlab chiqish. 3. Joriy kurslar uchun moslashtirilgan o‘quv rejalarini tasdiqlash.	2026-yil IV chorak - 2027-yil III chorak	Qo‘shimcha mablag‘ talab etilmaydi	-	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor M.I.Ollaberganov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i S.R.Kurbanov, fakultet dekanlari	2027/2028 o‘quv yilidan yangi rejalar joriy etilgan
3	Simulyatsion ta’lim va OSKE tizimini kengaytirish	1. Simulyatsiya markaziga yangi o‘quv bekatlarini tashkil etish (2030-yilgacha 20 ta). 2. Klinik ssenariylar va OSKE varaqalari bazasini yaratish. 3. Klinik fanlarda OSKEni bosqichma-bosqich joriy etish.	2026-2030-yillar	Byudjetdan tashqari mablag‘lar	10000,0	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor M.I.Ollaberganov, Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor A.R.Sapayev, fakultet dekanlari	Bekatlar soni 20 ta, klinik fanlar 100 % OSKE bilan
4	Oliy hamshiralik ta’limini kengaytirishga tayyorgarlik	1. Qabul kengayishiga mos kadrlar va xonalar ehtiyojini aniqlash. 2. Hamshiralik ko‘nikmalari simulyatsiya xonasini tashkil etish. 3. Ta’lim dasturini JSST tavsiyalari asosida takomillashtirish.	2026-2028-yillar	Byudjetdan tashqari mablag‘lar	1000,0	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor M.I.Ollaberganov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari	Qabul o‘sishiga mos ta’lim sharoitlari

5	Ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyaga tayyorlash	1. WFME standartlari bo‘yicha o‘z-o‘zini baholash. 2. WFME tomonidan tan olingan agentlik bilan hamkorlik kelishuvini tuzish. 3. Xorijiy tajribaga ega mutaxassislardan ishchi guruh tuzish. 4. Aniqlangan tafovutlarni bartaraf etish.	2027-2030-yillar	Byudjetdan tashqari mablag‘lar	1000,0	Rektor R.Y.Ruzibayev, O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor M.I.Ollaberganov, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i R.B.Axmedov	2030-yilgacha 2 ta dastur xalqaro akkreditatsiyaga taqdim etilgan
6	Sog‘liq bilimlari universiteti bilan “4,5+1,5” shaklidagi Davolash ishi qo‘shma ta’lim dasturini amalga oshirish	1. O‘quv rejalarini hamkor universitet bilan kelishish. 2. Dars beruvchi professor-o‘qituvchilarni tanlash. 3. Dastur sifatini birgalikda monitoring qilish.	2026-2030-yillar	Byudjetdan tashqari mablag‘lar	300,0	Rektor R.Y.Ruzibayev, O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor M.I.Ollaberganov, Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor D.Y.Batirov	Dastur sifatli amalga oshirilgan
7	Mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o‘qitishni kengaytirish	1. Xorijiy til sertifikatiga ega professor-o‘qituvchilar zaxirasini shakllantirish. 2. Xorijiy tilda o‘qitiladigan fanlar ro‘yxatini o‘quv rejalariga kiritish. 3. Hamkor universitetlar bilan onlayn darslar tashkil etish.	2026-2030-yillar	Byudjetdan tashqari mablag‘lar	500,0	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor M.I.Ollaberganov, Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor D.Y.Batirov, kafedra mudirlari	Xorijiy tilda o‘qitiladigan fanlar soni 80 % ga oshgan
8	Akademik litsey ta’limini takomillashtirish	1. Litsey o‘quv dasturlarini tibbiy ta’limga tayyorlov yo‘nalishida yangilash. 2. A-level va SAT talablarini o‘rganish. 3. Litsey bitiruvchilarining oliy ta’limga kirish natijalarini tahlil qilish.	2026-2030-yillar	Byudjetdan tashqari mablag‘lar	500,0	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor M.I.Ollaberganov, Akademik litsey direktori	Litsey bitiruvchilarining kirish ko‘rsatkichi oshgan
2-strategik maqsad. Hudud aholisi salomatligi muammolariga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar							

9	Ilmiy faoliyatni strategik rejalashtirish	1. Institut ilmiy salohiyatini tahlil qilish. 2. Ustuvor ilmiy yo‘nalishlar va kafedralar kesimida ilmiy KPIlarni belgilash.	2026-yil	Qo‘shimcha mablag‘ talab etilmaydi		Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor R.X.Karimov, Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i N.M.Xodjayeva	Ilmiy faoliyatning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangan
10	PhD va DSc dissertatsiyalarini tayyorlash va himoya qilishni qo‘llab-quvvatlash	1. Tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka yo‘naltirish. 2. Ilmiy rahbarlar va mavzular bazasini shakllantirish. 3. Dissertatsiya ishlari ijrosini monitoring qilish.	2026-2030-yillar	Byudjetdan tashqari mablag‘lar	200,0	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor R.X.Karimov, Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i N.M.Xodjayeva, kafedra mudirlari	Ilmiy darajali kadrlar ulushi 45 % ga yetgan
11	Xalqaro ilmiy nashrlarni ko‘paytirish	1. Ilmiy maqola yozish va nashr etish bo‘yicha o‘quvlar. 2. Scopus va Web of Science jurnallarida nashr uchun rag‘batlantirish tizimi. 3. Xalqaro ma’lumotlar bazalaridan foydalanishni kengaytirish.	2026-2030-yillar	Byudjetdan tashqari mablag‘lar	500,0	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor R.X.Karimov, kafedra mudirlari	Xalqaro nashrlar soni 2 baravar oshgan
